

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti

FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

IV bosqich "B" guruh talabasi

N.Toshtanovanning
Qo'shma gaplarda uyushish hodisasi

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.d.,prof.Sh.H.Shahobiddinova

ANDIJON - 2012

Qo'shma gaplarda uyushish hodisasi

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	4
Kirish.....	7
Birinchi bob.Uyushgan qo'shma gaplarni nazariy jihatdan tahlili asoslari.....	11
1.1.Qo'shma gaplarni nazariy o'rganish borasidagi muammolar.....	11
1.2. Gap qurilishiga sistem yondashish va qo'shma gaplarning shakl-vazifa (formal-funkstional) jihatdan tahlili asoslari.....	18
Ikkinchi bob. Uyushgan gaplar tahlili.....	26
2.1.Uyushgan qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot.....	26
2.2. O'zbek tilida uyushgan to'ldiruvchi ergash gaplar.....	39
Xulosa	45
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	52

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Uyushgan qo'shma gaplar masalasi bugungi tilshunoslikning dolzarb muammolaridandir.

Dastlab "uyushgan gap nima va u uyushiq gaplardan nima bilan farq qiladi?" , "Sintaksisda hozirgacha ajratilmagan uyushgan gaplarni ajratishga qanday zarurat bor?" kabi savollar yechimini topish zarur.

Bu hodisaning uyushiq bo'lakli sodda gaplarga va qo'shma gaplarga, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash zarurati bor. Bunday tuzilishli hosilalarni nima deb atash va qaysi kategoriya ichida o'rganish mumkin, qabilidagi savollarga javob berish lozim. Qo'shma gaplarini o'rganish gap ta'limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Shuning uchun turli tipdagi uyushgan qo'shma gaplarni o'rganish har qaysi til sintaksisini o'rganishning dolzarb masalalaridandir. Qo'shma gaplar tilshunoslikda keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, uyushiq qo'shma gaplar borasida tadqiqotlar uncha ko'p emas.

Mavjud adabiyotlarda bir semantik gruppaga kiruvchi teng bog'langan bo'laklarning uyushib kelishi, uyushiq bo'laklarning sanash intonastiyasi bilan aytilishi, umumiy bo'lakka ergashishi va umumiy bo'lakni ergashtirib kelishi, uyushiq bo'laklarning bir xil so'z turkumi bilan ifodalanishi, bir xildagi so'roqqa javob bo'lishi kabilar qayd etiladi. Bu qayd etilgan fikrlar to'g'ri.

Lekin qo'shma gap tarkibiy qismlarining uyushishi borasida fikrlarga to'liq qanoat hosil qilib bo'lmaydi.

Uyushgan qo'shma gaplarning eng keng tarqalgan turilaridan bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapli konstrukstiyalarni qiyoslab aytib o'tilgan muammolar yuzasidan fikrlarni jamlash zaruriyati mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Masalaning qisqacha o'rganilish tarixi.

O'zbekiston tilshunoslari tomonidan qo'shma gap ancha ko'p o'rganilgan. O'zbek tilshunoslari A.G'ulomov, M.Asqarova, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullaeva bu sohada katta ishlar olib borgan. Uyushgan qo'shma gaplar borasida R.Sayfullaeva ishlari diqqatiga sazovor.

Tadqiqot ob'ekti o'zbek tilidagi uyushgan to'ldiruvchi ergash gapli konstrukstiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot predmeti o'zbek tilidagi uyushgan to'ldiruvchi ergash gapli konstrukstiyalar.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

Tadqiqotning maqsadi - o'zbek tilidagi uyushgan to'ldiruvchi ergash gapli konstrukstiyalarlarning o'ziga xos jihatlarini aniqlash.

Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi.

- 1) uyushgan to'ldiruvchi ergash gapli konstrukstiyalar tushunchasiga ta'rif berish;
- 2) tilshunoslikda uyushish nazariyasini tahlil qilish;
- 3) o'zbek tilida uyushgan to'ldiruvchi ergash gapli konstrukstiyalarni kuzatish.

Ilmiy tadqiqot natijalarini "Nazariy grammatika", "Sintaksis" kurslarini o'qishda va maktab hamda kasb-hunar kollejlari qo'shma gap mavzusini o'tishda qo'llash mumkin.

Ilmiy ishning yo'nalishi. O'zbek tili

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlari olindi. Xorijiy mashhur tilshunoslar N.D. Arutyunova, L.S. Barxudarov, A. V. Bondarko, I. I. Meshchaninov, O. Esperson, I. R. Galperin, E.V. Guliyga, E.I. Shendels, V. G. Gak, O. I. Moskalskaya, N. I. Filicheva, N. Yu. Shvedova, M.I. Cheremisina, T. P. Lomtev va boshqalarning asarlari lingvistik metodologik asos sifatida foydalanildi.

Yurtimiz tilshunos olimlari A. Nurmonov, R. Sayfullaevlarning ilmiy ishlari malakaviy ishni yozishda muhim rol o'ynadi.

Tadqiqot metodlari sifatida transformatsion, qiyosiy, distributiv, ma'noni qismlarga bo'lish, bevosita tashkil qiluvchilarga ajratish, statistik va tajriba metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot uchun til materiali sifatida hozirgi zamon o'zbek yozuvchilarning asarlar matnlari, gazetalardagi maqolalar matnlari, ish yuritish hujjatlari matnlarda berilgan ayrim misollar olindi.

KIRISH

Shakl va mazmunning dialektik birligi hamda bu dialektik birlikning namoyon bo'lish tabiati masalasi har qanday fanning ham eng markaziy masalalaridandir. Zero har qanday fanning, shu jumladan, tilshunoslikning ham, bosh maqsadi hodisaning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatni hamda bu munosabatning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuning uchun ham tilshunoslikda «shakliy va mazmuniy tahlilning bir-biri bilan dialektik ravishda boglanganligi» ko'p ta'kidlanadi. Chunki U. Veynreyx to'g'ri ko'rsatganiday, ma'no va uning ifodasi o'rtasidagi qat'iy moslik faqat ideallashtirilgan semiotik belgilargagina xosdir. Tilda, esa, xususan, uning sintaktik sathida gapning shakliy va mazmuniy tarkiblari o'rtasidagi aloqa behad murakkab va ko'pincha ziddiyatli bo'lib, ular bir-birlari bilan to'liq muvofiq kelmaydi, ko'pincha mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimmetriya) mavjud bo'ladi. Ana shunday nomuvofiqlik bulmasa, tilshunoslikning oldida muammoning o'zi ham bo'lmas edi. Lekin gaplarning aksariyatida ana shunday nomuvo-fiqlik bor. Shakl va mazmunning bunday ziddiyatli tabiati tilning o'ziga xos xususiyatidir. Muhimi shuki, til birliklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi dialektik ziddiyat ularning uzviy birligiga to'sqinlik qilmaydigina emas, balki bu ziddiyat ana shunday birlik mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi, bu tildagi konuniy va ob'ektiv hodisadir.

Aytish lozimki, sodda gaplar dobrasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, tildagi tejash tendenstiyasining namoyon bo'lishi sifatida yuzaga kelsa, qo'shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalik tendenstiyasiga borib taqaladi.

Bir denotativ voqea ifodalangai ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik hamisha mavjud bo'ladi va bu nomuvofiqlikning yuzaga kelishi tildagi ortiqchalik tendenstiyasining amal qilishi natijasidir. Bu tendenstiya nutqiy aloqadagi muayyan zaruriyat bilan bog'liq, albatta. Bunday zaruriyat sifatida so'zlovchining turli sub'ektiv maqsadi, voqeaning baholashi kabilarni ko'rsatish mumkin. So'zlovchi ayni maqsadi, bahosi va shu kabilarni alohida ta'kidlab ifodalash uchun predikativ tizimlarni tanlaydi, lekin bu tizimlar denotativ voqeani emas, mazkur maqsadga ko'ra modusni ifodalaydi. Buning natijasida nazariy jihatdan ikki denotativ voqea ifodachisi bo'lgan ikki (yoki undan ortiq) predikativ birlikdan iborat ergash gapli qo'shma gap faqat bir denotativ voqeani ifodalaydigan bo'lib qoladi, ya'ni faqat bir mazmuniy «yadro»ni o'z ichiga oladi. Bu, tayinki, mazmun va shakl jihatidan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

T. A. Kolosova rus tilidagi *Delo v tom, chto dlya remonta... nujen... stanok* kabi gaplarda ifoda planining mazmun planiga mos emasligini aytib, yozadi: «Bunday qo'shma gaplar, ikki predikativ birlikning mavjud bo'lishiga qaramasdan, bir situastiyani ifoda qiladi. Jumlaning mazmuni aslida ergash gap qismida mujassamlashgan, bosh gap qismi esa oldin kelib, sezilarli

darajada mazmunsizlashgan, u axborot berish vositasi emas, balki ergash gapdagi axborotning o'ziga xos aktuallashtiruvchisidir». Tadqiqotchi ana shuni hisobga olib, bunday gaplarni ifoda planiga ko'ra qo'shma, mazmun planiga ko'ra esa sodda ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarda asosiy «axborotni aktuallashtiruvchi» sifatida, ya'ni modus ifodachisi sifatida bosh gap ham, ergash gap ham, aytib o'tilganiday, kelaverishi mumkin. Qiyos: *Hamma gap shundaki, biz tezroq, ishga kirishmog'imiz kerak. Kun tartibidagi keyingi masalaga kelsak, asosiy ma'ruzani kasaba uyushmasining raisi qiladi.* Birinchi gapda modus bosh gap orqali, ikkinchi gapda esa modus ergash gap orqali ifodalangan. Lekin bari bir har ikki gapda ham mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik mavjud.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, modus ergash gapli qo'shma gaplarning ergash qismida ifodalanganda, ergash gapda predikat sifatida ko'pincha shart maylidagi **fe'l** (yuqoridagi misol), *-ganda* shaklli **fe'l** (*Gapning to'g'risini aytganda, siz ko'p o'qishingiz kerak*) kabilar ishtirok etadi. Ergash gapda ifodalangan mazmunning tabiatiga ko'ra mazkur shakllar bilan bog'liq «shart» va «payt» ma'nolari neytrallashadi. Bu hol, albatta, tushunarli, chunki mazkur predikatlar denotativ voqea ifodasida ishtirok etmagan.

Shuni ham tabiiyki, modus ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo'ladi. Buni yaxlit gapda denotativ voqea qaraganda modusning nomuhimligi bilan izohlash mumkin. Ana shu nomuhimlik, aslida, tegishli so'z shakllaridagi ma'nolarning («shart», «payt» kabi) kuchsizlanishiga yoki neytrallashishiga olib keladi. Bu neytrallashuv ko'pgina ergash gapli qo'shma gaplarda juda aniq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan *Men senga aytsam, odamlarga yaxshilik qil, Keyingi masalaga kelsak, asosiy ma'ruzani kasaba uyushmasining raisi qiladi. Gapning ochig'ini aytganda, ishga jiddiy kirishmoq shart. Men o'ylaymanki, u bugun keladi* kabi ergash gapli qo'shma gaplarda ana shunday neytrallashuvni ko'rish mumkin. Bu neytrallashuvga va gapning tegishli qismlarida ifodalangan modusning mantiqiy-mazmuniy tabiatiga ko'ra bunday shaklan qo'shma gaplar haqli ravishda kirish tizimli sodda gaplar sifatida baholanadi. A. G'ulomov kirish tizimlarning asosiy gapdagi fikrga bog'liq bo'lgan, shu haqidagi qo'shimcha mulohazalarni ifodalashini ta'kidlaydi. Uningcha, «bu mazmun ottenkalari juda xilma-xil: so'zlovchining aytilayotgan fikrga sub'ektiv munosabatini, shu fikrga bog'liq holda tug'ilgan emostiyalarni, fikrning umumiy bahosini va shu kabi holatlarni bildiradi»¹. Bu ma'nolar biz modus tavsifi bilan bog'liq holda aytgan ma'nolar bilan mos keladi. Demak, kirish gap, kirish so'z, kirish tizimlarning semantikasi bevosita modusdan iborat. Modus ifodalangan va predikatlaridagi tegishli shakllar ma'nosi aniq neytrallashgan aksar ergash gaplarni kirish gaplar sifatida baholash bunday shaklan qo'shma gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikni

¹ Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек алабний тили. Синтаксис. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 155-бет.

bartaraf etadi. Chunki bunday holatdagi ergash gapning gapligi inkor etilmagan holda u qo'shma gapning sintaktnk tarkibidan tashqariga chiqariladi. Zero, kirish konstrukstiyalar so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradigan, lekin gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan elementlardir.

Yuqorida aytib o'tilganiday, modus ifodalovchi gaplar mohiyatan shakliy jihatdan ixchamlashishga moyil bo'ladi. Bu modus sifatidagi ma'noni nutqiy aloqa talabiga muvofiq, ta'kidlash darajasining katta yoki kichikligi bilan bog'liq. Ana shu darajaga mutanosib ravishda modus ifodalangan gapni predikativ tizim, hatto bir so'zgacha ixchamlashtirish mumkin.

Agar nutqiy aloqada modusni gap shaklida ifodalab alohida ta'kidlashga zarurat bo'lmasa, modusni ifodalovchi gap ixchamlanib boraverishi mumkin. Shuning uchun ham A. G'ulomovning yuqorida keltirilgan fikri asoslidir. Yana qiyoslaylik: *Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu erda turolmaysiz*. Bu gapda *-sa* ning ma'nosi neytrallashgan emas, u to'la «shart» ma'nosini ifoda etgan, ya'ni qo'shma gapning har ikki kismida ham denotativ voqea ifodalangan, modus alohida gap bilan ifodalaigan emas. Yaxlit qo'shma gapning mazmuni ikki denotativ voqea o'rtasidagi shart munosabatidan iborat, ya'ni birinchi denotativ voqea (ergash gapda) ning amalga oshishi ikkinchi denotativ voqea (bosh gapda)ni keltirib chiqaradi. Gapning mazmuniy va shakliy jihatlari bir-biriga muvofiq keladi. Endi mana bu

gapni olib ko'raylik: *Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu erlarni ko'rmagansiz*. Bu gapning ergash qismida modus ifodalangan va predikat ifodasidagi *-sa (aytsam)ning* «shart» ma'kosi neytrallashgan; bosh gapda esa *(siz bu erlarni ko'rmagansiz)* denotativ voqea ifodalangan. Shu ma'noda ergash gap mazmunan kirish gapga yaqinlashadi, bog'lovchi vosita *-sa* ham mazmun, ham grammatik jihatdan kuchsizlangan. Modusni ifodalovchi gapning ixchamlasha olish xususiyatiga ko'ra mazkur gapda quyidagicha shakliy ko'chim (transformastiya) ni amalga oshirish mumkin: *Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu erlarni ko'rmagansiz - Men sizga to'g'risini aytsam, siz bu erlarni ko'rmagansiz - Sizga to'g'risini aytsam, siz bu erlarni kurmagansiz - To'g'risini aytsam, siz bu erlarni ko'rmagansiz -To'g'risi, siz bu erlarni ko'rmagansiz*. Ko'rinadiki, denotativ voqea ifodasi bo'lgan gap bilan qarshilantirilgan va mazmuni modusdan iborat bo'lgan. *Agar men sizga to'g'risini aytsam* gapi mazmunan to'g'risi shaklidagi kirish so'z bilan teng.

Umuman, ergash gapli qo'shma gaplarning tarkibida alohida gap orqali ifodalangan modus mazmuni mavjud bo'lgan barcha turlari uchun mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik xosdir. Ayni choqda bunday ergash gapli qo'shma gaplardagi modus ifodasining tabiatiga ko'ra ularda hamisha kirish tizimli gaplarga aylanish imkoniyati mavjud. Bu mazmuniy-sintaktik jarayon, ya'ni ergash gapli qo'shma gaplarning kirish tizimli gaplarga shakliy ko'chishi benihoya murakkab va o'ziga xos jiddiy jarayon bo'lib, unda bir qator mantiqiy-lisoniy qonuniyatlar amal

qiladi. Bunday qonuniyatlarni to'lig'icha ochib berish va tasvirlash alohida ish uchun mavzu bo'la oladi.

Bizni bu borada qiziqtiruvchi yana bir hodisa bir necha voqelikning o'zaro bog'lanib - uyushib ifodalanishidir. Sodda gaplarning qo'shma gapga transformastiyalanishidagi bu o'ziga xos holat yanada qiziqarli materiallar beradi.

Birinchi bob. Uyushgan qo'shma gaplarni nazariy jihatdan tahlili asoslari

1.1. Qo'shma gaplarni nazariy o'rganish borasidagi muammolar

Sintaksisida qo'shma gap uchga bo'lib o'rganiladi:

- a) bog'langan qo'shma gap;
- b) ergash gapli qo'shma gap;
- v) bog'lovchisiz qo'shma gap;

Bu tasnif juda e'tirozli bo'lib, qaysi prinsip asosida tuzilganligi aniq emas. Bir qaraganda, qismlarning o'zaro birikish usuliga ko'ra tasnif qilinganga o'xshaydi. Chunki bog'langan qo'shma gap deganda qismlari teng bog'lovchilar, ergash gapli qo'shma gap deganda qismlarning mazmunan birikishiga asosga olinadigan qo'shma gaplar, uchinchi turida esa teng va ergashtiruvchi bog'lovchilardan birortasining ham qo'shma gap qismlarini birlashtirishda ishtirok etmasligi tushuniladi. Tasnif shu tarzda tuzilar ekan, bir qancha qonuniy savollar tug'iladi. Chunonchi, agar shu tasnif qo'shma gap qismlarining birikish usuliga asoslanib tuzilgan bo'lsa, komponentlari bir paytning o'zida ham teng, ham ergashtiruvchi bog'lovchi (..va,..shuning uchun...)lar yordamida birikkan qo'shma gaplar qaysi turga kiradi? Nega kesimlari har xil grammatik formalarda (-gan, -ib, -sa, -sin...) bo'lib, bosh gapga bog'lovchilarsiz birikkan qurilma [konstruktsiya]lar ergash gapli qo'shma gaplar deyiladi?

Qo'shma gapning bog'langan va ergash gapli deb ikkiga bo'linishida nega ikki qismli qo'shma gaplar asos olinadi? Ikki qismli qo'shma gaplarning ikki predikativ birlikning mazmun va intonastiyaga ko'ra birikuvidan tuzilgan turi asosga olinadi-yu, faqat ohang yordamida tuzilgan qo'shma gaplarga ahamiyat berilmaydi;

Qo'shma gap ichki turlariga baho berishda ham e'tirozli tomonlar bor. Jumladan, ergash gapli qo'shma gapning mazmun turlari bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarga asossiz ravishda ko'chiriladi. Natijada qo'shma gapning payt mazmunidagi bog'langan qo'shma gap, sabab mazmunidagi bog'langan qo'shma gap singari turlari paydo bo'ladi. Masalaga bunday yondashishdan ko'ra, an'anadan voz kechib, qo'shma gaplarni mazmun jihatidan butunicha alohida o'rganish tuzuk emasmi?

Ba'zi bir atamalar, iboralarning befarq qo'llangani natijasida sintaktik kategoriyalarni baholashda noaniqliklar, chalkashliklar kelib chiqadi. Buni bog'lovchisiz qo'shma gaplar bobida

ko'rish mumkin. 1987 yilda nashr etilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (Sintaksis) darsligi mundarijasida «Bog'lovchi vositasiz birikkan qo'shma gaplar» deyiladi. Bu iborada, birinchidan, «komponentlari» yoki «qismlari» shakllangan bo'lishi, ikkinchidan, «bog'lovchi vositasiz» demasdan, «komponentlari bog'lovchilarsiz birikkan qo'shma gap» deyish ma'qulroq edi. Chunki «bog'lovchi vositasiz» iborasi ancha keng bo'lib, so'z turkumi bo'lgan bog'lovchilardan boshqa vositalarni ham o'z ichiga oladi. «Komponentlari bog'lovchisiz birikkan qo'shma gap» deyilganda, fikrimizcha, so'z turkumi bo'lgan bog'lovchi tushuniladi, boshqa vositalar esa bunga kirmaydi.

Darslikning shu mavzu yoritilgan qismida: «Bog'lovchi vositasiz birikkan qo'shma gap komponentlari o'zaro bog'lovchilarsiz yoki bog'lovchi vazifasidagi grammatik formalarsiz, faqat intonatsiya bilangina birikib, sintaktik butunlikni hosil qiladi» deb qayd qilinadi. Bu tezisdagi «faqat» so'zi nazarda tutilsa, «bog'lovchi» keng ma'noda tuigunilganga o'xshaydi. Agar shunday bo'lsa, bunga qo'shilib bo'lmaydi. Negaki bog'lovchisiz qo'shma gaplarning komponentlari ohangdan tashqari, boshqa ko'p vositalar bilan ham birikadi. Bu G'.A.Abdurahmonov asarlarida yaxshi va asosli qayd etilgandir.

Yuqoridalardan ko'rindiki, qo'shma gap bobida ancha muammolar mavjud. Qo'shma gap tasnifidagi mana shunday har xil ziddiyatli talqinlar AN.Kononovning turkiy tillarda qo'shma gap shu vaqtga qadar hamma e'tirof qiladigan maqbul bir kriteriyga ega emasligi haqidagi fikrini yana bir bor tasdiqlaydi;

Qo'shma gapning ichki talqiniga kelsak, bunda ham anchagina qarama-qarshi fikrlar berilgan. Chunonchi, ergash gapli qo'shma gap bobida uning turlari bir-birlari bilan qorishgirilib tahlil qilinadi.

Bulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Shunday qo'shma gaplar borki, ularga turli tomondan yondashsang, turli xil qo'shma gap kelib chiqadi. Ana shunday qo'shma gaplarga ba'zan yuzaki yondashib, qo'shma gapning bir turini zo'rma-zo'raki boshqa turiga qo'shib qo'yamiz. Xuddi shuningdek, ba'zi bir yoyiq bo'laklarni ham ergash gap deb sanayveramiz. Bu holat, ko'shshcha, ravish gapli qo'shma gaplarda uchraydi.

Ravish ergash gap bosh gapdagi ravish holini izohlaydi, shu bilan bosh gapda ifoda etilgan harakatning qanday holatda, qanday ravshpda bajarilishini ko'rsatadi. Masalan, Siz shunday yozingki, biz uni tushunaylik gapining birinchi komponenti bosh, ikkinchi komponenti ergash gapdir. Bu gapdagi «shunday» {«qilib» so'zini qo'yish ham mumkin) bo'lagi ravish holi. Ergash gap ana shu ravish holini izohlaydi. Bu qo'shma gapni sodda gapra o'tkazsak, ergash gap yoyiq ravish holiga o'tib, yozmoq harakatining qanday holda, qanday ravishda bajarilishini ko'rsatadi;

Biz tushunadigan qilib yozing kabi. Bu sodda gapdagi «biz» bo'lagi ega emas, u sub'ekt bo'lib, yoyiq ravish holining bir elementidir.

Miqdor tushunchasi bilan daraja tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun aniq (konkret) bitta gapni miqdor daraja ergash gapli qo'shma gap deb bo'lmaydi. miqdor deganda harakatning bajarilishi miqdori (ko'p yoki kamligi) tushunilsa, daraja deganda harakat bajarilishining ko'p yoki kamligi emas, balki shu miqdorning darajasi, qay darajada ekanligi tushuniladi. Masalan, «Sen qay darajada bilsang, u ham shu darajada biladi» gapida miqdorning ko'p yoki kamligi haqida emas, balki shu miqdorning darajasi haqida gap boradi. Boshqacha qilib aytsak, bu gapda ikki kishi bilim darajasining tengligi haqida gap boradi. Lekin bu tenglikning ko'pligi ham, kamligi ham aniq emas. «Ko'p bilsang, ko'p; kam bilsang, kam biladi» ma'nosida. Masalani yanada oydinlashtirish uchun daraja ergash gapli qo'shma gaplarga bir-ikkita misol keltiramiz: Qiladigan ishingiz, maqsadingiz qanchalik yuqori, ulug'vor bo'lsa, g'ayratingiz shuncha qaynayveradi. (R.Fayziy) Azizxonning jasorati qishloq ahlini qanchalar quvontirgan bo'lsa, Tursunboyning qilmishi shunchalik xafa qilgan edi. (S.Ahmad)

Daraja ergash gapli qo'shma gaplarda «qancha-shuncha», «qanchalik —shynchalik», «qay darajada —shu darajada» kabi so'zlar qo'llanadi. O'рни bilan, «daraja» so'zidan keyin «ko'p», «oz», «kam», «mo'l» singari so'zlar ham ishlatiladi.

Daraja ergash gapli qo'shma gailarning xarakterli belgisi «daraja» so'zi bo'lsa, miqdor (o'lchov ham deydilar) ergash gapli qo'shma gapning xarakterli belgisi «ko'p», «oz», «kam», «mo'l» kabi so'zlardir. Shuni aytish kerakki, «ko'p», «oz» so'zlari singari so'zlar daraja ergash gapli qo'shma gaplarda ishlatiladi.

Ammo «daraja» so'zi miqdor ergash gapli qo'shma gaplarda deyarli qo'llanilmaydi. Masalan, «Fursat, qancha kutsangiz, shuncha sabr-toqat qilaveradi» («Sharq yudduzi») gapida «daraja» so'zini ishlatish qiyin. Xullas, ergash gaplar tasnifida ancha noaniqliklar mavjud;

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ergash gaplar bilan sintaktik oborotlar orqali ifodalangan yoyiq ikkinchi darajali bo'laklar qorishtiriladi va boshqalar.

Sintaktik oborotlar (ularni «yarim predikativ konstrukstiyalar» ham deydilar) ancha keng bo'lib, uyaga sifatdosh, ravishdosh, infinitiv oborotlardan tashqari ot, sifat, ravish, shuningdek, sterjen elementi «bor», «yo'q» singari so'zlar bilan ifodalangan oborotlar ham kiradi. Gapning barcha bo'laklari, hatto undalma ham sintaktik oborotlar bilan ifodalangan ikkinchi darajali bo'laklar ergash gap bilan qorshptiriladi. Bu masalani o'rganish ham tilshunos olimlarimiz oldida turgan vazifalardan biridir;

Kirish konstrukstiyali, aniqrog'i, kirish gap sodda gaplar grammatik qurilishi jihatdan ergash gapli qo'shma gaplarga o'xshaydi. Shuning uchun bu ikki kategoriya deyarli hamma vaqt bir-biri bilan qorishtiriladi yoki kishini ikkilantiradi. Bunday qorishtirishlarni bartaraf etish

haqida shu masala bilan bevosita qiziqqan A.R.Sayfullaev tomonidan ayrim fikrlar aytib o'tiladi, chunki, kirish gapli sodda gaplar, ko'pincha, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarga o'xshaydi. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarni yoyiq to'ldiruvchi sodda gaplarga o'tkazish mumkin. Ammo kirish gapli sodda gaplarda bunday yo'l tutib bo'lmaydi.

Kirish gaplarni boshqa so'zlar bilan almashtirish mumkin, ammo ergash gaplarni biror so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Chunki, Siz buni bilingki, doim yodimdasi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapda bosh gapni ham, ergash gapni ham biror so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Aytaylik, siz bordingiz, ish usuli o'zgardimi? gap kirish gapli qo'shma gap bo'lib, uning kirish gapini (aytaylik) biror so'z bilan almashtirish mumkin, jumladan, uni «xo'p», «masalan» singari so'zlar bilan almashtirsa bo'ladi va b.

Tilimiz va nutqimizda keng iste'molda bo'lgan qator hodisalar bor, ularning o'rnini grammatik qurilishida aniq belgilanmagan. Shulardan biri sostavli kesimlarga ega bo'lgan qo'shma gap strukturali nutqiy hosilalardir. Bunday qonstruksiyalarda predikativlik ma'nolari har ikkala kesim uchun umumiy bo'lgan taqdirda — predikativlik formalarini o'zida tashuvchi element ko'pincha «ixchamlik» maqsadida «qavsdan tashqariyaga chiqariladi, ya'ni u umumiy bo'lak sifatida gapning oxirida kelib har ikkala kesimga tegishli bo'ladi.

An'anaviy grammatikamizda undov, buyruq va emosional baho bildiradigan gaplar, tasdiq va inkorni, muomala odatlarini bildiradigan gaplarning hammasi bir guruhga — bo'laklarga ajralmaydigan gaplarga mujassamlashtiriladi. Ba'zi adabiyotlarda bunday gaplar so'z-gap deb ham yuritiladi. Formal-funksional nuqtai nazardan yondashganda bu so'zlarda so'z turkumlarining bir-biridan ajralmagan, qorishiq (diffuz) holatlarining qoldig'i o'z aksini topgani va ular bir tarkibli qorishiq so'z-gaplarning tashkil etishi ko'zga tashlanadi. Bunday qorishiq so'z-gaplar so'z turkumlari doirasida ham, sodda va qo'shma gaplar tarkibida ham qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shu kabi hosilalar gap tarkibida kelganda darak, so'roq va buyruq gaplar shaklida qo'llanishi uchraydi. Chunki,

— Yaxshi keldingizmi?

— Rahmat, shukur

gapning ikki qismi ham bir sostavli, darak mazmunidagi sodda gaplardir. Mana shu qorishiq so'z — gaplarning oddiy atov birliklari bilan shakldoshligi, bunday so'z-gaplarning ma'no va vazifaga ko'ra turlari kabi masalalar hanzugacha o'z echimini kutmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sodda gapning faqat o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari juda oz bo'lib, ular sodda gapni sintaksisning bir bo'limi (sodda gap sintaksisi) sifatida o'rganishga asos bo'lolmaydi. Ammo qo'shma gapning sodda gap bilan bo'lgan umumiy xususiyatlardan tashqari, faqat o'ziga xos bo'lgan xususiylar tomonlari ko'p. Biz bu bilan sintaksisni faqat «Qo'shma gap sintaksisi» deb o'rganish kerak demoqchi emasmiz. Sodda —

qo'shmami bari —bir — gap.Umumiy xususiyatlari ularni birlashtirib turadi. Bu erda shuni qayd etish kerakki, sodda gapra qaraganda so'zlar birikmasining doirasi keng. Shuning uchun ham sintaksisni sodda va qo'shma gap sintaksisi deb emas, balki «So'zlar birikmasi sintaksisi» va «Gap sintaksisi» deb ikkiga bo'lib o'rganish mumkin. Ammo so'zlar birikmasi (sintaktik) gap sintaksisida talqin qilinadi. So'zlar birikmasi gap birligi, gapning qurilish materialidir. Shuning uchun ham «So'z birikmasi sintaksisi» ning «Gap sintaksisi»ga nisbatan ichkn sintaksis deb hisoblanishi tabiiydir. Demak, «So'zlar birikmasi sintaksisi» «Gap sintaksisi» ichida o'rganiladi.Sintaksisda qo'shma gap eng yirik kategoriya, oxirgi nuqta emas. Undan boshqa matn (tekst) ham bor. Matn bir-biriga bog'liq bo'lgan murakkab tushunchalarni ifodalaydi. Bu murakkab tushunchalar sodda gaplar orqali ham, qo'shma gaplar orqali ham yuzaga chiqadi. Demak, matnning qurilish materiali sodda va qo'shma gaplardir. Matn bir va bir qancha qismlardan ham iborat bo'ladi. Matnning soma va qo'shma gaplarga, qo'shma gapning turlariga ajratish qiyin bo'ladi. Shuningdek, ajratib bo'lmaydigan ko'rinishlari ham uchraydi. Bu qisqa ma'lumotdan ko'rinadiki, matn sodda va qo'shma gaplardan tubdan farq qiladi va sintaksisdagi yirik hamda murakkab kategoriya hisoblanadi.Shunga ko'ra, sintaksisni gap va matn sintaksisi deb ikkigabo'lib o'rganish maqsadga juda ham muvofiq tushadi. Gap sintaksisi kichik sintaksis bo'lsa, matn sintaksisi katta sintaksisdir. Katga sintaksis maxsus tekshirishni, yirik-yirik monografiyalar yozilishini talab qiladi.

O'zbek tilshunosligida katta sintaksis endi qo'l uriladigan soha bo'lib, kichik sintaksis unga nisbatan ancha keng o'rganilgan. Shunday bo'lsa ham, kichik sintaksisning o'rganilishini kechiktirib bo'lmaydigan tomonlari ko'p. Bularni o'rganib, kichik sintaksis bo'yicha mukammal xulosalarga kelish hozirgi kunning muhim masalalaridan biridir.

O'zbek tilshunosligida gap sintaksisini o'rganish tarixiga nazar solish uning, asosan, an'anaviy, ya'ni til va nutq hodisalarini farqlamay o'rganadigan ta'limot (F.F.Fortunatov, AM.Peshkovskiy, V.V.Vinogradovlar ta'limoti) asosida tadqiq etilganligini ko'rsatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda sistem yo'nalish keng tarqaladi. O'zbek tilshunosligida sistem-struktur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar fonologiya leksikologiya va semasiologiya morfologiya sohalarida keng tarqaldi va hatto ularni umumlashtirish, shu asosda darslik va qo'llanmalar hamda ma'lum bir sohaning to'liq tahliliga bag'ishlangan monografiyalar yaratish darajasiga ko'tarildi. Lekin sintaksis sohasida sistem yo'nalish asosida tadqiqot doirasida o'ta cheklangan. Bu sohada biz N.Mahmudov, ANurmonov, ABerdialiev, N.Boshmonovlarning yuqorida sanalgan ishlarini eslatib o'tishimiz mumkin. Lekin bu tadqiqotchilar ham sodda va qo'shma gaplarni ajratishda A.G'ulomov, G'Abdurahmonov, MASqarovalar tadqiqotlarida shakllangan «ega» markazli gap sintaksisi ta'limotiga tayanadilar. Boshqacha qilib aytganda, ular sodda gap va qo'shma gaplarni, gap bo'laklarini ajratishda,

ularning qurilishini belgilashda an'anaviy sintaksis ta'limotiga asoslandilar. Ammo bu hodisalarning o'zaro munosabatlari aniqlanmasdan turib, sistem-struktur sintaksisini yaratish mumkin emas. Zeroki, mukammal sistemali tadqiqot gap sintaksisining asosini, gapning o'zini sistem-struktur tahlil usullari asosida farqlash, shu asosda uning xususiyatlarini belgilash va bularga tayanib, gapning sistemaviy tahlili nazariyasi va tatbiqini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu sohada izlanish 80-yillarning oxirlarida boshlandi va uning tahliliga navbatdagi bo'limda to'xtalamiz.

1.2. Gap qurilishiga sistem yondashish va qo'shma gaplarning shakl-vazifa (formal-funkstional) jihatdan tahlili asoslari

Sistem tilshunoslik yoki tilga ma'lum bir barqaror ichki qurilishga ega bo'lgan sistema {butunlik, yaxlitlik} sifatida yondashish shveystariyalik tilshunos F. de Sossyur ta'limoti bilan bog'liqligi hammaga ma'lumdir. Lekin sistemaviy yondashish dastlab fonologiyada, so'ng morfologiyada, keyinchalik leksika tahlilida o'z aksini topdi. Sintaksisga sistem tahlil 50-yillarda kirib kela boshladi va 60-70 — yillarda keng miqyosda yoyildi. Sintaksisni sistem tahlil qilish asosida o'nlab mukammal nazariyalar yaratiddi. Generastiya, transformastiya nazariyalari, tarkibli bo'laklar nazariyasi, daraja nazariyasi shular jumlasidandir. 60-yillarga kelib, sistem sintaksis turli-tuman xususiy muammolarning muhokama va munozarasidan ayrim tillarning mukammal sistem sintaksisini yaratishga qarab rivojlandi. Rus tilshunosligida bu masala butun jiddiyligi bilan 60-yillarda qo'yildi. Jumladan, rus tilshunosligida akad. V.V. Vinogradov va tilshunoslik institutining etakchi tilshunoslaridan N. Yu. Shvedova, V. N. Yarsevalar boshchiligidagi ikki guruh orasida rus tilining mukammal yangi ilmiy sintaksisi asoslari bo'yicha kuchli munozara o'tkazildi. Bu munozara sistem sintaksis tarafdorlarining uzil -kesil g'alabasi bilan yakunlandi. Rus tili sistem grammatikasining mukammal asoslari yaratilgandan keyin so'nggi yigirma yil davomida ikki marta rus tilining ilmiy sistem grammatikasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, turli universitetlar va «Prosvmenie», «Высшая shkola» nashriyotlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun hozirgi rus adabiy tili bo'yicha nashr etilgan o'ttizdan ortiq darslik va qo'llanmalarda sistem sintaksis ommalashtirildi.

Rus ilmiy sistem grammatikasida so'zlar birikmasi, sodda gap qurilishi va o'xshashlik qatorlari (paradigmasi), qo'shma gap qurilishi va o'xshashlik qatorlari (paradigmatikasi) masalalarini o'rganishda N. Yu. Shvedova, G. P. Uluxanov, M. I. Cheremesina, E. V. Guliga, G. M. Reyxel va boshqalarning xizmati katta bo'ldi.

Hozirgi kunga kelib o'zbek tili sistem sintaksisini yaratishga izchil ravishda bir necha tilshunoslar guruhi kirishdi. Bu masalaning alohida mavzulari — so'zlar birikmasi tarkiblari

{elementlari)ning o'zaro bog'lanish tabiati, sodda gap qurilishi, sodda gapning eng kichik qolipi, gap bo'laklarining gapdagi mavqei, kesimning uyushish tabiati, gapning eng kichik qolipi kabilar Sh.Akramov, M.Abuzalova, M.Boshmonov, S.Nazarova, M.Maqsudova, B.Mengliev, Z.Eralieva ishlarining tadqiqot manbai bo'ldi. Bu tadqiqotlar asosida 1986—1991 yillarda respublikamizning etuk olimlari N.M.Mahmudov, A.N.Nurmonov va boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan turkiy tillar sistemaviy sintaksisining tadqiqot asoslari e'lon qilindi va b.

Tilga sistem yondashuvning negizi, asosi til va nutq hodisalarini farqlash bo'lganligi sababli tadqiqotchilarning bu guruhi sistem sintaksis tahlilini izchil ravishda gapning til sathidagi eng kichik qolipini ishlab chiqishdan boshladi. Chunki yaxlit sintaktik talqinni ishlab chiqish uchun gap qolipi bosh mezon vazifasini o'taydi. Gapni o'rganish uchun uning «jonini» — «til sathidagi eng kichik qolipini» aniq belgilash shart va zarur edi.

Ma'lumki, nutqimizda berilgan va an'anaviy sintaksisimizda atroflicha tahlil etilgan gap, uning shakl va vazifa turlari til sathida, ongimizda mavjud bo'lgan umumiylikning, gap eng kichik qolipining turli lug'aviy qurshov va nutq sharoitlarida minglab muayyan shakllarda yuzaga chiqishida namoyon bo'ladi.

Gapning eng kichik qurilish qolipi tadqiqotchi MAbuzalovanning ilmiy ishida maxsus tadqiqot manbai bo'lgan bo'lsa-da, biz bu erda shu tadqiqotchi ishining asosiy xulosalarini takrorlashga, uning tadqiqi yo'lini ixchamgina tarzda eslatib o'tishga majburmiz, zeroki qo'shma gap haqidagi ta'limot, qo'shma gap talqini sodda gap talqiniga asoslanadi va ishning mantiqiy davomidir.

Tilshunoslar guruhi sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda sintaktik nazariyaning gap haqidagi quyidagi talqiniga asoslanadi:

1. Gapning eng kichik qolipi til birligi (ongimizda mavjud) umumiy birlik bo'lib, u nutqimizda fikrni til qoidalariga mos ravishda shakllangan tarzda yuzaga chiqarish uchun imkoyaiyatdir.
2. Gapning eng kichik qolipini belgilashda tilshunoslar uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyatini ajratishdi .
3. Gap, gap kichik qolipidan o'rin ola oladigan tarkibiy qismlarining mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), jumladan, lug'aviy birikmalar (so'z, leksema)ning ma'noviy (semantik) va sintaktik birikuvchanligiga asoslanishdir. Gapning eng kichik qurilish qolipidan lug'aviy birliklarning kengaytiruvchilari (aktantlari va ularni ifodalovchilar) chiqarildi.
4. O'zbek tilida gapning eng kichik qolipini belgilashda Hind-Ovropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy farq hamisha diqqat markazda bo'ldi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Ovropa tillariga bir tarkibli gaplar, umuman, xos emas va gap hech qachon egasiz bo'la olmaydi.

Chunonchi, Dojdit — Yomg'ir yog'yapti. Mojno pisat — Yozish mumkin. Было холодно — Sovuq edi.

Mne strashno - Mei qo'rquyapman kabi faqat slavyan tillariga xos bo'lgan bir tarkibli gaplar boshqa Hind-Ovropa tillarida egasi noaniq olmoshlar bilan (umumlashma olmoshlar), ya'ni ega vazifasida kelgan qo'shmalar bilan beriladi. Chunonchi, nemis tilida Es regnet — dojdit. Shuning uchun bir tarkibli gap haqidagi ta'limot faqat slavyan tillari sintaksisi uchun A.H.Shaxmatov tomonidan ishlab chiqildi va gapning umumiy nazariyasiga ta'sir etmadi.

O'zbek tilida esa kesim shaxs-son jihatdan mukammal shakllangan. Shuning uchun o'zbek tilida «Men xatni yozaman, sen xatni olib kelasan» gapi bilan «xatni yozaman, olib kelasan» gaplari orasida keskin farq yo'q. Yuqorida keltirilgan to'rt asosga tayanib, o'zbek tilidagi gap eng kichik qolipining tarkibi [WPm] sifatida belgilanadi.

Bunda [W] — kesimning, gap kesimining atash, ma'no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo'lib, mustaqil so'z turkumiga oid bo'lgan, ya'ni kesim vazifasida kela oladigan so'zga, so'zlar birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, [W] til qolipidagi imkoniyat bo'lib, u nutqda atov birligi vazifasini o'tay oladigan va shu nutqning istagan bir birligi (so'z, so'z birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi, yuzaga chiqishi mumkin. [Pm] esa atov birligi [W] ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo'lib, u nutqda kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari shaklida voqelanadi.

«Men xat yozaman, sen olib borasan» gapida qarama-qarshi qo'yilish, qurilish, tuzilish va mazmun bosqichida emas, balki ta'kid sen olib borasan, ya'ni ifoda, uslub bobidadir.

Qator tilshunoslar, jumladan prof. N.M.Mahmudov gapni ham atov birliklari, nominativ birliklar sirasiga qo'shadi.

Kesimlik kategoriyasi rus tilshunosligida maxsus morfologik kategoriya sifatida ajratilmaydi. Shuning uchun bunday kategoriya o'zbek tilshunosligida ham ajratilmagan. Lekin umumiy tilshunoslikda atov birliklarini gap kesimi shakliga keltiruvchi maxsus grammatik kategoriyaning mavjudligi tilshunos nazariyotchilari ishida, jumladan, I.M.Memjaninov, A.I.Smirnistkiy, O.Espersen va boshqalarning ishlarida isbotlangan. Bu masalalar keyinchalik B.M.Banaru, E.V.Guliga, G.M.Reyxel ishlarida batafsil ko'rildi.

O'zbek tilshunosligida esa til materiallari asosida Z.Eralieva tomonidan maxsus tadqiq etilgan, H.Shokirova ishlarida tadqiq etilmoqda.

" Bu hosilalar va keyingilarida butun ish davomida [WPm] ning tarkibini nuqta va chiziqchalardan iborat bo'lgan to'g'ri chiziq bilan ifodalaymiz. Tagiga nuqtalar chizilgan qismi [WPm] ning (W) tarkibini, chiziqchalar bilan chizilgan qismi esa [Pm] tarkibiga to'g'ri keladi.

Chunonchi, O'qigan edik da «o'qi» [W] ning ifodalangan qismi, «-gan edik» [Pm] ning muayyan nutqiy ifodalangan qismidir.

O'zbek tilida qo'shma gaplarning turlari va ko'rinishlarini o'rganishda sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] talqin asosi sifatida qabul qilindi. Sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] dan iborat bo'lsa, mantiqan qo'shma gapning qurilish qolipi ikki va undan ortiq [WPm] larning birikishidan iboratdir. Demak, qo'shma gapning qurilish qolipi [IWPm + 2WPm + 3WPm + ... + nWPm]. Qo'shma gapning tildagi qolipi [IWPm + 2WPm + 3WPm + ... + nWPm] ekanligini hamisha esda tutgan holda biz tadqiqotimizning navbatdagi bo'limlarida qulaylik va ixchamlik maqsadida gap [QG] — ning eng kichik umumiy qurilish qolipi {QQQ} {WPm + WPm} ramzidan foydalanamiz.

Ishimizning navbatdagi bo'limi mana shu [WPm R WPm] qolipi turli to'ldirishlari nutqda ro'yobga chiqish ko'rinishlarining talqiniga bag'ishlanadi. Zeroki, "Qo'shma gap sintaksisi" deyilganda [QG] qolipidagi hap bir [WPm] ning nutqda ifodalanishi shakllari va bitta [QG] tarkibida

birikkan ikki va undan ortiq [WPm] lap o'zaro rang-barang munosabatlarning tadqiqi va talqini tushuniladi.

Qo'llanmaning bu bandida [WPm + WPm] qolipining nutqda qanday moddiy shakllarda yuzaga chiqishini mantiqiy-riyoziy usulda sanash ustida to'xtalamiz.

Mantiqiy-riyoziy sanash (logiko-matematicheskoe ischislenie, teoriya kombinirovaniya) ma'lum bir umumiylikning ayrim qirralari, asoslari, xususiyatlariga ko'ra bo'linish turlarini qanday xususiyliklarda yuzaga chiqa olish imkoniyatini beradigan usuldir. Bu usul riyoziy mantiqda umumiylikning qanday xususiyliklarda yuzaga chiqishini oldindan aytib bera oladigan aqliy amaliyotdir. Riyoziy mantiqda xususiyliklarni tasnif etishda bu etakchi yo'l sanaladi. O'zbek tilshunosligida mantiqiy-riyoziy sanash usullari ongli ravishda ilk da'fa qo'llanilayotganligi sababli bu mantiqiy-riyoziy sanash usulining mohiyatini ochib berishimiz lozim. Buning uchun ikki narsaning mantiqiy-riyoziy sanash usulini bayon etamiz.

I - hodisa.

Bizga A, B, V, G, D kabi beshta xususiylik (birlik, vohid) berilgan. Shu vohiddardan nechta uch vohidli (vohidlar tartibi hisobga olinmagan holda) butunlik tuzish mumkin?

Riyoziyotda bu topshiriq quyidagi formula bilan echiladi:

Bu kabi masalalar tugal va atroflicha o'rganilgan, ammo tilshunoslikda bu usul birinchi marta qo'llanayotgani uchun uni sharhlash lozim deb bildik. Yuqoridagi formula birliklari quyidagilarni bildiradi: A — fr. so'z (argapgement) ning birinchi harfi bo'lib, joylashtirish, tartibga solishni; p — hamma elementlar soni; k — aniqlash lozim bo'lgan uch vohidli butunlik.

Berilgan:

Demak, besh vohiddan bitta vohid bilan farqlanadigan oltmishta uchlik tuzish mumkin .

$$(n-1)(n-2)\dots(n-k+1), k>0, p=5$$

$$k=3, A=5 \cdot (5-1)(5-2)\dots(5-3+1)$$

II — hodisa.

Tilda: «negiz» (AB) va «qo'shimcha» (vg) mavjud. Bular nutqda bir-biri bilan birikadi. Birikishda negiz va qo'shimchaning har biri bo'linmasdan ham, bo'linib ham kela oladi. Nutqda ularning nechta turi bo'lishi mumkin? Bularni sanab o'tamiz:

I negiz ham bo'linmaydi, qo'shimcha ham bo'linmaydi. Bu o'z navbatida, ikki turni beradi:

1) AB vg;

2) vg AB.

II negiz bo'linmaydi, qo'shimcha bo'linishi ham, bo'linmasligi ham mumkin. Bu quyidagi turlarni beradi:

1) Abvg;

2) vgAB;

3) vABg.

III negiz ham, qo'shimcha ham bo'linishi va bo'linmasligi ham mumkin. Bu tur quyidagi ko'rinishlarga ega:

1) Abvg

2) vgAB

3) vABg

4) AvBg

5) vAgB

6) AvgB

Demak, yuqorida berilgan savolga javob tariqasida shuni aytish mumkinki, o'zaro birika oladigan (AB) va (vg) vohidlari yaxlit holda va bo'linib ham nutqda olti turli birikishni bera oladi va bundan ko'p birikish turi bo'lishi mumkin emas. Negaki, shu yuqoridagi olti tur berilgan imkoniyatning mantiqiy va riyoziy nihoyasidir.

Mantiqiy-riyoziy sanash bizga nima beradi? Murakkab narsaning tarkibiy qismlariga ko'ra o'zaro birikishidan mantiqiy va riyoziy birikish xillari chegarasini belgilaydi, mantiqiy-riyoziy turlarini ular haqiqatda borligi-yo'qligini, ma'lum bir imkoniyatlardan qay biri voqelanganini va qay biri hali imkoniyat sifatida yashirinib yotganini ko'rsatadi.

Biz [WPm + WPm] qolipini turli o'lchov (parametr)lar mantiqiy — riyoziy usul bilan sanab o'tar ekanmiz, [WPm + WPm] qolipi nutqda qanday moddiy shakllarda chiqa olishini, ya'ni qo'shma gapning necha xil mantiqiy-riyoziy turlari bo'la olishini sanab, aniq belgilay olgan bo'lamiz. Bu ko'rinishlar nutqda moddiylik, xususiylik sifatida ham berilgan bo'lishi

mumkin yoki faqat mantiqiy-riyoziy imkoniyat bo'lib nutqda ma'lum yoki noma'lum sabablarga ko'ra uchramasligi ham mumkin. [WPm + WPm] umumiy qolipining yuzaga chiqish turlarini sanash biz uchun sanash o'lchovlari, me'yorlari, belgilari, parametrlarini belgilab olishimiz zarur. Buning uchun qo'shma gap qurilishida qanday o'lchovlar, parametrlar muhimligini belgilab olishimiz lozim. Tilimizda bunday ko'rsatkichlar juda ko'p turli bo'lib, ularning hammasini biz hech qachon sanab nihoyasiga eta olmaymiz. Shuning uchun ham quyidagi asosiy uch ko'rsatkichlarga tayanamiz;

I. [WPm]larning egasi [S] bor yoki yo'qligi, bo'lishi mumkin yo mumkin emasligi, bir xil yoki boshqa xil ekanligiga;

II. [WPm]lap tarkibida [W] ning bir xil yoki boshqa-boshqa bo'lishi, bir xil so'z turkumi bilan yoki boshqa-boshqa so'z turkumlari bilan, bittadan so'z bilan yoki bir nechta so'zlar (ya'ni so'z birikmasi) bilan ifodalanganligiga ko'ra;

Sh. [WPm] tarkibida [Pm] larning bir xil yoki qisman bir xil, to'liq bir xil yoki hap xil ekanligiga ko'ra.

[WPm + WPm] qolipini yuqorida sanalgan uch ko'rsatkichdan boshqa o'nlab o'lchovlar asosida xillarini berish mumkin.

Jumladan, [WPm + WPm]lapning o'zaro bog'lanish usullari va yo'llari, [WPm + WPm] qolipining turli xil ko'rinishlarida tarkibiy qismlarning bog'lanish xususiyatlari va ularni bog'lovchi vositalar, har bir JWPm] tarkibida to'liq o'xshash, qisman o'xshash, yaqin va zid vohidlarning bo'lish-bo'lmasligi, 1[WPm] tarkibida 2 [WPm] tarkibidagi biror vohidga ishora qilib turadigan vohidlarning bor-yo'qligi, [WPm]lap tarkibida aloqador, nisbiy vohidlarning bo'lish-bo'lmasligi kabi ko'rsatkichlar shular jumlasidandir. Albatta, bunday ko'rsatkichlar asosida [WPm + WPm] qolipining tilimiz va nutqimizda mumkin bo'lgan turlarini aniqlash katga ahamiyatga ega. Lekin bunday nozik masalalar o'zbek tilida ikki [WPm]ning shakl-vazifa talqini nuqtai nazaridan o'zaro birikish qonuniyatlari anchagina mufassal tavsiflangandan keyin o'rganilishi mumkin va zarur bo'ladigan masalalardir. Xuddi mana shu keyingi muammoni o'rganishni oldiga maqsad qilib qo'ygan bizning ishimiz uchun esa qo'shma gapning asosiy, tayanch komponentlari bo'lgan [W], [Pm] va [5]larning umumiy xususiyatlari asosida turlarini ko'rib chiqish hozircha etarlidir. Bu vohidlarni YaHVO (yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat) va UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) sifatida tadqiq etish yosh avlod oldida turgan vazifalardan biridir. Shuning uchun biz quyida [WPm + WPm] qolipning [S], [W] va [Pm] lar umumiy xususiyatlari asosida o'zaro birikish turlarini sanab chiqish bilan kifoyalanamiz.

[QG] tarkibiy qismlari orasiga qo'yilgan (+) alomati riyoziyotda oddiygina qo'shish alomatini bildiradi va bizning [WPm+WPm] qolipimiz [2WPm]ra tengligini ifodalaydi.

Keyingi tadqiq va tahlillarimiz va [QG]ning mohiyati bu holni inkor etadi, chunki [QG] — bu ikkita sodda gap emas. [QG]ni tashkil qiluvchi qismlar (komponentlar) o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Bu aloqani riyoziyotda [V] eki [R] alomatlari bilan belgilaydilar. Shu belgi har jihatdan [QG] qismlari o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalashga mos keladi.

Demak, [QG]ning kichik qurilish qolipi (KQQ)ni [WPmRWPm] yoki [WPmVWPm] deb belgilash maqsadga muvofiqdir. [QG]ning eng KQQni [WPmRWPm] deb olsak, uning asosiy tipik ko'rinishlari [WPm, WPm] — teng tarkibli, {WPm-»WPm} -tobe tarkibli, [WPm'O'WPm] mutanosib tarkibli qo'shma gaplardan iboratdir.

Ikkinchi bob. Uyushgan gaplar tahlili

2.1.Uyushgan qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot

Uyushiqlik umumiy bir holat bo'lib, sodda gapga ham, qo'shma gapga ham xosdir. Sodda gapda an'anaviy sintaksisga ko'ra gap bo'laklari uyushib kelsa, qo'shma gapda gap bo'laklari, qo'shma gap qismlarining o'zi, o'zini bilan, qo'shma gap uyushib keladi. Keyingi qurilmada qo'shma gapning qurilish materiali qo'shma gap bo'ladi. Uyushiqlik ikki birlik (element)dan iborat bo'ladi: a) uyushuvchi birlik (element)lar; b) uyushtiruvchi birlik (element). Uyushuvchi birliklar — sanaluvchilar. Uyushtiruvchi birliklar — sanaluvchilarni birlashtirib, markazlashtirib turuvchilar. Uyushuvchi birlik grammatikada uyushiq birlik (element), bo'lak, gap deyiladi.

"Uyushiq" so'zi hozirgi zamon tilshunosligida, asosan, gap bo'laklariga nisbatan qo'llaniladi. Gaplarga nisbatan esa bu terminni (uyushiq, uyushgan) o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib R.Rasulov qo'llagan. Olim uyushgan gaplarning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, qo'llanilishini "Alpomish" dostoni materiali asosida tekshiradi va qiziqarli ma'lumotlar beradi. Mavjud adabiyotlarda bir semantik gipnaga kiruvchi bo'laklarning uyushib kelishi, uyushiq bo'laklarning sanash intonatsiyasi bilan aytilishi, umumiy bo'lakka ergashishi va umumiy bo'lakni ergashtirib kelishi, uyushiq bo'laklarning bir xil so'z turkumi bilan ifodalanishi, bir xiddagi so'roqqa javob bo'lishi kabilar qayd etiladi. Bu qayd etilgan fikrlar to'g'ri. Lekin hamma vaqt ham, har xil joylashish (pozitsiya)da ham uyushiq bo'laklarning shu yuqoridagi xususiyatlarga to'la ega bo'lishi, shu qonuniyatlardan chetga chiqishi mumkin emasligi haqidagi fikrlarga qanoat hosil qilib bo'lmaydi. Til masalalariga har bir milliy tilning o'z qonuniyatlari, har bir xalqning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish kerak. Masalan, rus xalqi barcha jonli predmetlar uchun "kto?" so'rog'ini qo'llasa, o'zbek xalqi kishilar uchun "kim?", kishidan boshqa barcha jonli va jonsiz predmetlar uchun "nima?" so'rog'ini qo'llaydi. Shundan uyushiq bo'laklarning turli xil so'roqlarga javob bo'lishi kelib chiqadi. Bundan tashqari uyushiq bo'laklar jonli va jonsiz predmetlarni ifodalovchi turli xil otlar bilan ifodalanib keladi.

Masalan: Apiqlarda qiy-chuv bilan cho'milib, qizg'in tuproqqa ag'anagan qora-qura bolalar, o'rikzorda o'rik qoqqan qizlar, havoda zarg'aldoqning "biyov-biyov"i va traktorning guldirovi, devor orqasida tandirda pishayotgan nonning hidi,

olislarda chaylalaridan, dala shiyonlaridan ko'tarilayotgan tutun ko'malari, bog'larda mevalarni qushlardan qo'riqllovchilarning shovqini — hamma narsa unga tinch hayotni va erkin mehnat nash'asini gavdalantirar edi. (Oybek) . Bu gapda ettita ega uyushib kelgan bo'lib, ularning ikkitasi {bolalar, kizlar} "kimlar?", beshtasi (biyov-biyovi, guldirovi, hidi, tutun ko'malari, shovqini) "nimalar?" so'roqlariga javob bo'ladi. Haqiqatdan ham, bu xarakterli misollardan uyushiq bo'laklarning turli xil so'roqqa javob bo'lishi aniq ko'rinib turibdi.

Uyushiq bo'laklar, xuddi uyushmagan bo'laklarday, ot va olmoshlar, fe'l, fe'lning ravishdosh, sifat-dosh, infinitiv formalari, ravish kabi so'z turkumlari bilan ifodalanadi. O'rniga qarab, ot va olmosh bilan ifodalangan bo'laklar bir uyushqlik zanjirini tashkil etadi. Masalan, "Mamlakat , Lola, Mahfuza, Ziyoda, yana kimlar keldi" gapida "Mamlakat", "Lola", "Mahfuza", "Ziyoda", "kimdir" bo'laklari uyushiq bo'lak bo'lib, ularning oldingi to'rtgasi ot, keyingi bitgasi, yakunlovchisi olmosh bilan ifodalangan. Demak, uyushiq bo'laklar bir xil turkumdagi so'zlar bilan ifodalanadi va ular bir hil so'roqqa javob bo'ladi degan fikrlar nisbiydir, yuqorida aytganimizdek, uyushqlik ikki elementdan iborat bo'ladi: uyushuvchi va uyushtiruvchi elementlar.

Uyushtiruvchi element bir semantik gruppani tashkil qilgan uyushiq bo'laklarni ham, boshqacha izohlasak, turli jinsli uyushiq bo'laklarni ham markazlashtirib kelaveradi. Bir misolni qiyoslab, tahlil qilib ko'raylik; Norali ikki qo'llab,

sortlarga ajratib, tez, toza va ko'p terdi. (I. Rahim). Bu misolda "terdi" uyushtiruvchi element bo'lib, "ikki qo'llab", "sortlarga ajratib", "tez", "toza", "ko'p" uyushuvchi elementlardir. Uyushuvchi elementlar ikkita semantik gruppani tashkil qiladi:

a) ikki qo'llab, sortlarga ajratib, tez, toza — ravish hollari;

b) ko'p — miqdor holi.

Mana shu turli jinslardan iborat hollar bir uyushqlik zanjirini tashkil qiladi.

To'ldiruvchi va holning umumiy tomonlari bor: a) ikkalasi ham kesim sostaviga kiradi, ya'ni kesim bilan sintaktik aloqaga kirib, unga ergashadi; b) grammatik ko'rsatkichlari deyarli bir xil; v) ifodalanish materiali jihatidan ham yaqinligi bor. Ana shuning uchun bo'lsa kerak, to'ldiruvchi bilan hol ba'zan bir uyushqlik zanjirini tashkil qiladi: Ashulani mana shunday joyda aytasang! Ovoziig hamma-hamma joyga, hamma odamlarga, osmonlarga. yulduzlarga etib borsin, (A. Muxtor) .

Bu misolda "etib borsin" — uyushtiruvchi element, "hamma— hamma joyga", "hamma odamlarga", "osmonlarga", "yulduzlarga" uyushuvchi elementlardir. Uyushuvchi elementlar — gapning ikki xildagi bo'laklaridir; a) hamma-hamma joyga, osmonlarga — hol; b) hamma odamlarga, yulduzlarga — to'ldiruvchi. Bundan ko'rinadiki, gap bo'laklarining ikki semantik turlarigina emas,

balki shu bilan birga, turli xil gap bo'laklari ham, o'rniga qarab, bir uyushiq zanjirlarini tashkil qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, o'zbek tilida (o'zbek tili an'anaviy sintaksisida), shuningdek, umuman, turkiy tillarda uyushiq bo'lak bir va turli jinsli bo'ladi. Uning bir jinslisi (bug'doy, arpa, tariq ekildi) rus tilidagi "odnorodnyy"ga teng keladi. Turli jinslisi, bizning bilishimizcha, rus tilida ham, turkiy tillarda ham o'rganilmagan. Shunisi aniqki, ruscha "odnorodnyy"ga nisbatan o'zbekcha — "uyushiq" so'zining ma'nosi kengdir.

Turli jinsli uyushiq bo'laklar gap bo'laklarining barchasiga xos emas. Masalan, hol bilan aniqllovchi, to'ldiruvchi bilan aniqllovchi bir uyushiqlik zanjirini tashkil qilmaydi.

Chunki, ularning semantik-grammatik tabiati shunga mos emas, jumladan, aniqllovchi o'tli birikmaning elementi bo'lsa, to'ldiruvchi bilan hol fe'lli birikmaning elementlaridir. Yuqorida qayd etganimizdek, uyushuvchi va uyushtiruvchi elementlar faqat sodda gap bo'laklarigagina emas, shu bilan birga qo'shma gap qismlariga ham xosdir, Buni "Uyushiq qismli qo'shma gap" nomi bilan quyida ko'rib o'tishga harakat qilamiz.

UYUSHIQ QISMLI QO'SHMA GAPLAR

Ma'lumki, qo'shma gap ikki va undan ortiq qismli bo'ladi. Ikkidan ortiq qism (komponent)li qo'shma gapni murakkab qo'shma gap deymiz. Uyushiq qismli qo'shma gaplar ana shu qo'shma gapning bir ko'rinishi hisoblanadi, Uyushiq qismli qo'shma gaplar, uyushiq bo'lakli sodda gaplardek, keng miqyosda o'rganilmagan. Shuning uchun uning o'ziga xos xususiyatlari ochilganicha yo'q. Biz ham hozir uni mukammal sharhlab bermoqchi emasmiz, chunki u maxsus tekshirishni talab etadi.

An'anaviy sintaksisimiz nuqtai nazaridan beriladigan bu tavsifimizdan asosiy maqsad an'anaviy sintaktik tahlilimizga "uyushgan gap" ("uyushiq qismli qo'shma gap") atamaları ostida tushuniladigan hodisalardan o'zimizning

"uyushgan gap" atamamizning mazmuni va bu atama bilan nomlanadigan hodisaning "uyushiq gap" (uyushiq qismli qo'shma gap)lardan shakl, qurilish, mazmun va mohiyat jihatdan tub farqlarini bo'rtgarish, "uyushgan gaplar" mohiyatan uyushiq gaplardan tamoman boshqa narsa ekanligiga tadqiqotchilar

dikqatini jalb qilishdir. Yana takror va takror aytishimiz kerakki, an'anaviy tahlildagi uyushiq gaplarni o'rganish bizning vazifamiz va maqsadimiz emas. Bizning maqsadimiz gap qurilishiga shakl-vazifa xususiyatlari asosida yondashilganda yuzaga chiqqan va biz "uyushgan gap"lar deb atagan narsaning mohiyati hamda bu mohiyat ko'rinishlarini tavsiflashdir, shu

bilan birga "uyushgan gap"larning — "uyushiq gap" (uyushiq qism)lardan qanchalik keskin va tubdan farq qilishini bo'rtshrishdir. An'anaviy sintaktik tahlil asoslari nuqtai nazaridan o'zbek tilida uyushiq gaplarning tur va ko'rinishlari ustida to'xtalish esa, an'anaviy sintaksisimizda uyushiq

gaplarni (uyushiq qismli qo'shma gaplarni) juda kam o'rganilishi bilai bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, biz bu bo'limchada ananaviy sintaktik tahlildagi uyushiq gap haqidagi ta'limotni mantiqiy nihoyasiga etkazamiz va o'shandan keyingina sintaktik tahlilimiz uchun tamoman yangi narsa bo'lgan va biz — "uyushgan gap" (lar) deb nomlagan hodisalarimiz tahliliga o'tamiz. Demak, navbatdagi vazifamiz (an'anaviy sintaksisimizdagi) uyushiq gaplar haqidagi ta'limotni nihoyasiga etkazishdir. Qo'shma gapning uyushiq qismlari ham, xuddi sodda gapning uyushiq bo'laklaridek, asosan, sanash ohangi bilan aytiladi. Bunday qismlar grammatik jihatdan o'zaro teng bo'lib, o'zlari uchun umumiy bo'lgan birlikka (elementga), umumiy qism (komponent)ga ergashadi, umumiy qism (komponent)ning biror bo'lagini izohlaydi. Agar izohlanuvchi mavjud bo'lmasa, umumiy qismni butunicha izohlaydi. Uyushiq qismlari, xuddi soda gapning uyushiq bo'laklaridek, umumiy qism (komponent)ga ergashadi yoki uni ergashtirib keladi. Agar bosh gap uyushib kelsa, ular uchun ergash gap umumiy qism hisoblanadi. Agar ergash gap uyushib kelsa, ular uchun bosh gap umumiy qism sanaladi. Agar bosh va ergash gaplar bir paytda uyushib kelsa, har bir bosh gap ergash gapning hammasi uchun umumiy bo'ladi. Qo'shma gapning uyushiq komponentlari, ko'pincha, bir jinsli bo'lib, tenglanish ohangi va teng bog'lovchilar yordamida birikadi. Teng bog'lovchilar oxirgi qismlarni biriktirib bog'lasa, sanashning tugallanganligini, xulosalashni ifoda etadi. Masalan: Qirg'in qurollari yo'qotilsa, osmonimiz musaffoligi ta'minlanadi, xalqimiz osoyishtaligi va tuprog'imiz yanada farovon bo'ladi (Gazetadan). Bu gap to'rt qismli qo'shma gap bo'lib, birinchisi ergash gap, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchisi bosh gap. Bosh gapning keyingi ikkitasi "va" bog'lovchisi yordamida birikadi va bu bog'lovchi sanashning tugallanganligini ko'rsatadi.

Murakkab qo'shma gapning deyarli barcha turlari — teng qismli, ergash qismli qo'shma gapning hamma turlari (ergash gapning bosh gapga ketma-ket birikuvchi turidan tashqari) uyushib kelish xususiyatiga ega.

Sodda gapning uyushiq bo'laklarini, o'zni bilan, umumlashtiruvchi bo'laklar umumlashtirib, izohlab keladi. qo'shma gapning uyushiq qismlarini esa umumlashtiruvchi gap (umumlashtiruvchi qism)lar umumlashtirib keladi. Bu umumlashtiruvchi gaplar umumlashtirish bilan birga, xulosalash, yakunlash mazmunini ham ifoda etadi. Yana shuni ham qayd qilish kerakki, sodda gapning uyushiq bo'laklarini faqat umumlashtiruvchi bo'laklar umumlashtirib keladi. qo'shma gapning uyushiq qismlarini esa umumlashtiruvchi gap bilan bir qatorda,

umumlashtiruvchi bo'lak ham umumlashtirib keladi. Jumladan, "...o'zi kim, turmushi qanday, ota-onasi bormi, xotini qanday xotin — bularning hammasini juda so'rab bilgisi keldi-yu, so'ramadi" (A. Muxtor) gapida shunday holatni ko'ramiz. Bu misolda "o'zi kim", "turmushi qanday", "ota-onasi bormi",

"xotini qanday xotin" degan to'rtta gap uyushqlik zanjirini tashkil qiladi. Bu uyushliq gaplarni umumlashtiruvchi gap emas, balki umumlashtiruvchi bo'lak (bularning hammasini) umumlashtirib keladi.

Uyushuvchi va umumlashtiruvchi elementlarning bitta qurilma ichida bo'lishi shart emas. Jumladan, yuqoridagi misolni ikkita gap shakliga keltirsak ham, umumlashtiruvchi bo'lak umumlashtiruvchi bo'lakligicha qolaveradi: ... o'zi kim,

turmushi qanday, ota-onasi bormi, xotini qanday xotin? Bularning hammasini juda so'rab bilgisi keldi-yu, so'ramadi kabi. Qo'shma gapning qismlari uyushib kelganidek, qo'shma gapning o'zi zam uyushib keladi. Bunday vaqtda qo'shma gap, qo'shma gapning qurilish materiali bo'ladi. Ko'pincha, bir ergash, bir bosh gapdan iborat bo'lgan qo'shma gaplar birdan ortiq bo'lib, uyushib keladi va qo'shma gapning qurilish materiali hisoblanadi. Bu xil qurilma (konstruktsiya)larda shartli holda "ichki qo'shma gap", "tashqi qo'shma gap" atamalarini qo'llash mumkin.

"Ichki qo'shma gap" deganda qo'shma gapning qurilish materiali bo'lgan qo'shma gap tushunilsa, "tashqi qo'shma gap" deganda shu qurilish materiallaridan hosil bo'lgan qo'shma gap tushuniladi. Mana shu ikki xil qurilmadan tashkil topgan

qo'shma gaplarni shartli holda uyushliq qo'shma gaplar deymiz. Uyushliq qo'shma gaplarda, asosan, ikki holatni ko'rish mumkin: a) qo'shma gapning qurilish materiali bo'lgan qismlar, ya'ni nomustaqil sodda gaplar (predikativ bo'laklar) uyushib keladi; b) qo'shma gap qo'shma gapning qurilish materiali bo'lib, uyushib keladi. Misollarga murojaat qilaylik: 1. Ko'saklar terib olinib, g'o'zapoya yulinsa, erlar bir tekis shudgor qilinsa, yangi molxona ishga tushirilsa, umumaya, mo'ljaldagi ishlar bajarilsa, dam olish hastida o'ylash mumkin.

2. Kunlar og'di kelmading,

Quyosh botdi, kelmading,

Tun qora chodirin boshga yopdi, kelmading. (qo'shiqdan)

Birinci qo'shma gap, bizning tahlilimizga ko'ra, besh qismdan iborat:

a) ko'saklar terib olinib, g'o'zapoya yulinsa, b) erlar bir tekis shudgor qilinsa;

v) yangi molxona ishga tushirilsa-,

g) umuman, mo'ljaldagi ishlar bajarilsa-,

d) dam olish hastida o'ylash mumkin.

Shu besh qismning oldingi uchasi uyushliq qismlar bo'lib, to'rtinchi qism orqali umumlashtiriladi. Keyingi — beshinchi qism esa etakchi (bosh) qism bo'lib, umumlashtiruvchi qism, tomonidan izohlanadi. To'rtinchi qism sanash ohangi jihatdan odatdagi uch qism qatoriga, kirsam ham, uyushqlik zanjiriga ilinmaydi. Agar shu to'rtinchi qismni kengaytirib, — "mo'ljaldagi boshqa ishlar ham bajarilsa" desak, bu qism ham uyushqlik zanjirining bir elementi hisoblanadi.

Ikkinchi misol [Kunlar og'di, kelmading, quyosh botdi,

kelmading, Tun qora chodirin boshga yopdi, kelmading) oltita predikativ birlikdan iborat bo'lib, uchta juftlikni tashkil qiladi. Har bir juftlik, ya'ni ichki qo'shma gaplar uyushib kelib, tashqi qo'shma gapni hosil qiladi.

Yuqoridagi tahlildan biz xulosa qilib quyidagilarni ayta olamiz:

1. Uyushiq gap faqat murakkab qo'shma gaplar tarkibidagina bo'ladi.
2. Uyushiq gaplar mohiyatan qo'shma gapning tarkibiy qismlaridan birining yoki har ikkalasining uyushib (mazmun va vazifa jihatidan bir xil bo'lib) kelishidir. Boshqacha qilib aytganda, uyushiq gaplar deganda bir bosh gapga bo'ysundirilgan ikki va undan ortiq bir tppdagi ergash gaplar, bir yoki bir kecha bir xil tipdagi ergash gaplar bo'ysungan ikki va undan ortiq bir gapdagi bosh gaplar tushuniladi.
3. Uyushiq gaplar qurilishiga ko'ra sodda va qo'shma gap bo'lishi mumkin.

Uyushiq gaplar haqidagi an'anaviy ta'limotni nihoyasiga etkazgach, biz gap qurilishiga shakl-vazifa jihatidan yondashilganda ajratilgan **uyushgan gaplar** tahliliga o'tamiz.

Dastlab "uyushgan gap nima va u uyushiq gaplardan nima bilan farq qiladi?" "O'zbek tili sintaksisida hozirgacha ajratilmagan uyushgan gaplarni ajratishga qanday zarurat bor?"qabilidagi savollarga javob berish lozim

Buni misol asosida ko'rib chiqamiz. Masalan, Ukasi rasm chizar edi; singlisi televizor ko'rar edi) misoli: ikki ega (ukasi, singlisi), ikki kesim (chizar edi, ko'rar edi) dan iborat, kesim tarkibidagi ko'rsatkichlardan biri edi to'liqsiz fe'li ikki marta qo'llangan

Ko'rinib turibdiki, bunday gaplarda bitta shakllangan kesim, bir necha va har xil ega hamda boshqa bo'laklar qo'llangan bo'ladi. Endi uyushiq qismli qo'shma gaplarni uyushgan gaplar bilan qiyoslab chiqamiz. Biz talqin etayotgan uyushgan gaplarni rus va o'zbek tilshunosligida ishlatilnb kelayotgan "uyushiq qism (komponent)li qo'shma gaplar"dan farqlash lozim. Yuqorida aytanimizdek, uyushiq gaplar deganda bir bosh gapga tobe bo'lib kelgan ikki va undan ortiq bir tipli ergash gaplar tushuniladi .

Masalan,

Hamma biladiki, otam quruvchi, onam zavoda ishlaydi gapi uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi bosh gap.

Mana shy bosh gapga (:hamma biladi) ikkita to'ldiruvchi ergash gap — Otam kuruvchi, onam zavodda ishlaydi — birikib keladi. Bu qurilma qolipini quyidagicha berish mumkin:

Qurilmaning yuqorida keltirilgan qolipidan ko'rinib turibdiki, bunday gaplar qolipli uyushgan gaplardan tubdan farqlanadi. Bu farqlardan eng asosiysi shundaki, uyushiq gaplar faqat qo'shma gap tarkibidagina bo'la oladi. Uyushgan gaplar esa sodda va qo'shma gaplar oralig'ida turadi va o'zbek nutqi sintaksisida gaplarning qurilishiga ko'ra alohida bir xili (turi)ni tashkil etadi, an'anaviy sintaksisdagi uyushiq gaplar bilan aloqasi va o'xshashligi yo'q. Shuning uchun an'anaviy sintaksisda

gaplar qurilishiga ko'ra "sodda gaplar" va "qo'shma gaplar" kabi ikki bosh turga ajratilsa, shakl vazifa jihatdan yondashilganda ular uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) sodda gaplar — bitta shakllangan kesimga ega bo'lgan gaplar;
- 2) uyushgan gaplar (ikki va undan ortiq egaga, har bir egaga aloqador bo'laklarga (so'zlarga) ega bo'lib, bitta kesimning ko'rsatkichlari bilan shakllangan gaplar);
- 3) qo'shma gaplar — ikki va undan ortiq shakllangan kesimga ega bo'lgan gaplar.

Sodda va qo'shma gaplar qurilishini belgilashda asosiy omil gapda nechta shakllangan kesimning bo'lishidir. Egalarning miqdori, bor-yo'qligi, bir xil yoki har xilligining ahamiyati yo'q. Uyushgan gaplarni ajratishda esa bosh omil ikkitadir:

- 1) bitta shakllangan kesimning mavjudligi;
- 2) ikki va undan ortiq uyushmagan eganing mavjudligi.

Mana shu xususiyatlari bilan uyushgan gaplar uyushiq egali sodda gaplardan (egalar uyushgan bo'lib bitta shakllangan kesim mavjud Rahima, Karima, Salima bordilar), uyushiq kesimli sodda gaplardai (kesimning lug'aviy qismi ikkita va undan ortik, kesimlikni shakllantiruvchi vositalar bitta, ega bor yoki yo'q, uyushgan yoki uyushmagan.

Bu kabi gaplar qurilishining kichik qolipi Uyushiq kesimli sodda gaplar masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi. Uyushgan gaplarda ega, albatta, ikki va undan ko'p bo'ladi, lekin bu ega uyushmagan holatda qo'llanadi. Xuddi shuningdek kesimning [W] qismi ikki va undan ko'p, [Pm] esa bittagina bo'ladi. Shunda uyushgan gaplarning eng kichik kurilish qolipi qo'llaniladi. Endi bu hosilalarning uyushiq qismli qo'shma gaplar va uyushiq qesimli sodda gaplar bilan munosabatini ko'rib chiqamiz. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ikki va undan ortiqlarning birikuvi qo'shma gapni hosil qiladi. An'anaviy grammatikada mazmun va grammatik jihatdan bir-biriga bog'liq qismlardan tashkil topgan gaplar qo'shma gaplar deyiladi. Qo'shma gap sodda gapdan ham tuzilishi, ham kurilish material bilan farq qiladi. Agar sodda gap bir

konstruktiv markazdan iborat bo'lsa, qo'shma gapda bir-biriga bog'langan bir necha konstruktiv markaz mavjuddir. Sodda gap bir predikativ markaz, qo'shma gap esa bir necha predikativ markazdan tuzilgan bo'ladi. Akam vrach bo'lib ishlaydi, singlim esa o'qituvchi bo'lib ishlaydi gapida ikkita qism, ikkita predikativ markaz bor, kesim takror holda qo'llangan.

Sintaktik iqtisod nuqtai nazaridan yondashilsa, birinchi kesimni tushirib qoldirilsa ham bo'ladi va bu gapni Akam vrach, singlim esa o'qituvchi bo'lib ishlaydi tarzida keltirish mumkin.

Masalan,

Men hayron qoldim: do'kondorlarning ba'zilar kitob o'qib ba'zilar tasbeh o'girib, boshqa birlari esnab o'tirishardi (Yo. Shukurov). An'anaviy grammatikada bu tipdagi gaplar qo'shma gaplar qatoriga kiritilib, birinchi qism bosh gap, keyingilari to'ldiruvchi ergash gaplar deb qaraladi (qisman sabab mazmuni bor). Formal-funkstional tadqiqot "Tezislari" mualliflarining fikricha, qo'shma

gapning minimal modeli qurilishiga ega. Bu turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining ichki agglyutativ tuzilishi (strukturasi)dan kelib chiqadigan holdir.

Do'kondorlarning ba'zilar kitob o'qib, ba'zilar tasbeh o'girib, boshqa birlari esnab o'tirishardi gapi uchta qismdan tashkil topgan, bularning har biri o'z navbatida [S] va [W] larga hamda hammasi uchun umumiy bo'lgan [Pm] birligiga ega.

Demak, bu hosila $\{(S_j - W_i), (S_2 - W_2), (S_3 - W_a^{Pm})\}$ tuzilishiga ega bo'lib yana bir umumiy birlikka ham ega. Bu umumiy birlik uyushiq bo'lakli gaplarda qo'llanadigan umumlashtiruvchi so'z vazifasini bajarib kelmoqda. Buni biz gapning shaklini o'zgartirganimizda yaqqol sezamiz; Do'kondorlarning ba'zilar kitob o'qib, ba'zilar tasbeh o'girib, boshqa birlari esnab o'tirishlarini ko'rib hayron qoldim. Bir predikativ markazga ega bo'lgan bu birlik sodda gapdir. "Men hayron qoldim" birligining umumlashtirish, jamlab ko'rsatish xususiyatlarini hisobga olib, shartli ravishda umumlashtiruvchi gap deb atadik. Bu $[Um.g.; \{(S_i - W_i), (S_2 - W_2), (S_z - Sh_z)\}Rt]$ tuzilishli gap bo'lib, uyushiq bo'lakli sodda gaplarga va qo'shma gaplarga, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ham o'xshash, ham farqli tomonlari bor. Shunday ekan, $\{(S, - W_j), (S_2 - W_2)\}Pm]$ tuzilishli hosilalarni nima deb atash va qaysi kategoriya ichida o'rganish mumkin? Yana shunisi qiziqki, kesimlikni shakllantiruvchi birlikning o'zi har xil, turli shaklda bo'ladi, Quyida biz ularning ayrim paradigmalarini beramiz:

1. $[(Uning\ qo'llari\ ishda), (ko'zi\ shudgorda), (ammo\ xayoli\ Zebixonda)]edi//ekan//emish$ (S.Ahmad)
2. $[(Uning\ ko'llari\ ishda), (ko'zi\ shudgorda), (ammo\ xayoli\ Zebixonda)]bo'ladi//bo'lar//bo'lgan\ va\ h.$
3. $[(Uning\ qo'llari\ ishda), (ko'zi\ shudgorda), (ammo\ xayoli\ Zebixonda)]$
yoki
4. $[(Otam\ rais), (onam\ brigadir)].$

Keyingi gapda kesimlikni shakllantiruvchi birlik yo'q, nol ko'rsatkichga ega, lekin u har doim ko'llanishi va har xil formada bo'lishi mumkin: (otam rais), (onam brigadir)— dir//edi bo'ladi va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, bunday birliklarning kesimlikni shakllantiruvchi birligi bo'lmasa ham, qo'llanishi g'ayri tabiiy hol emas. Ammo ayrim o'rinlarda [Pm] ni qo'llamaslik gapning semantikasiga ta'sir qiladi.

Chunonchi, chakkasi tirishib, ko'zi qizarib ketibdi gapining qismida chakkasi — ega, tirishib— kesimning leksik ma'no tashuvchi qismi [W], ikkinchi qismda ko'zi — ega [S], qizarib —[W], ketibdi — kesim tarkibidagi o'z ma'nosini yo'qotib, yordamchi element vazifasini bajaruvchi fe'l. Bu gapdagi kesimlikning shakllantiruvchi elementni "qavsdan tashqari"ga chiqarishimie mumkin: $\{(chakkasi\ tirishib), (ko'zi\ qizarib)\}$ ketibdi. Bu gapni ikki mustaqil qismga ham bo'lsa bo'ladi; Chakkasi tirishib ketibdi. Ko'zi qizarib ketibdi. Biroq har ikki qismning kesimini shakllantirish uchun xizmat qiluvchi "ketibdi" birligi u yoki bu sabablarga ko'ra qo'llanmasa, kesimgina emas,

balki gap ham shakllanmay qoladi; chakkasi tirishib, ko'zi qizarib — Agar fe'lning ravishdosh formasi har ikkala o'rinda tuslanuvchi fe'l bilan almashtirilsa, unda bu birlik qo'shma gap bo'ladi: Chakkaci tirishdi, ko'zi qizardi.

Ayrim hollarda esa kesimlikni shakllantiruvchi birlik nol ko'rsatkichga ega bo'ladi. Chunonchi, U baroqqosh, ko'zi chaqchaygan, afti ishshaygan (H.Nazir) gapida bu birlik bo'lmasa ham, nol ko'rsatkichga ega bo'lsa ham, gapning mazmuni (semantikasi) va tuzilishi (strukturasi)ga ta'sir qilmagan.

Demak, kesimni shakllantiruvchi birlik ham turli shakllarda bo'lishi, ham nol ko'rsatkichga ega bo'lish mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lgan $\{(S, -W_j), (S_2 \text{ — } W_2)\}P_m$ tuzilishli hosilalarni biz uyushgan gaplar deb atadik. Uyushgan gaplar bir jihatdan sodda gaplarga, boshqa jihatdan qo'shma gaplarga o'xshaydi. Ularning sodda gaplarga o'xshash tomonlari shundan iboratki, uyushgan gaplarda kesimdagi shakllantiruvchi birlik $[P_m]$ sodda gaplarda bo'lgani kabi, bitta, ularning qo'shma gaplarga o'xshash tomoni shundaki, uyushgan gaplar tarkibi (sostavi)da ikki va undan ortiq ega va har bir eganing o'z $[W]$ (ya'ni kesimning leksik qismi bor), lekin kesimlarni shakllantiruvchi $[P_m]$ umumiydir". Shuning uchun uyushgan gaplarni bir ega kesimli (ya'ni, $S \text{ — } WP_m$ strukturali), uyushgan egali (ya'ni $S_i \text{ — } S_2 \text{ ... — } WP_m$), uyushgan kesimli $[S \text{ — } (W_j, W_2, W_3 \text{ ... } W_n)P_m]$ tuzilishi sodda gaplardan ham, ikki va undan ortiq predikativ markazli (yani WP_mRWP_m strukturali) qo'shma gaplardan farqlash lozim, chunki uyushgan gaplar $\{(S_i - W_i), (S_2 \text{ — } W_2)\}P_m$ tuzilishiga ega. Uyushgan gaplar; sodda va qo'shma gap ierarxiyasida, prof. H.G'.Ne'matov aytganidek, "oraliq uchinchi" (vklyuchennoe trete) mavqeiga ega ,ya'ni unda sodda va qo'shma gaplarning qarama-qarshi qo'yilish belgilari ma'lum ma'noda neytrallanib, dialektik birlikda yuzaga chiqadi.

Formal-funkstional yondashuvda kesim hamisha murakkab tuzilishga ega bo'lib, u lug'aviy ma'noni o'zida tashuvchi qismidan, uning kengaytiruvchilaridan, kengaytiruvchilarining kengaytiruvchilaridan (bularning barchasini ixchamlash uchun biz $[W]$ ishorasi bilan ifodalagan edik) va kesimlik kategoriyasining ma'no va vazifalarini bu $[W]$ ga kirituvchi vositalardan iboratdir, Chunonchi: Uch-to'rtta katta-kichik bolalar ko'chada baroq it bilan o'ynashardi sodda gapi ikki tarkibga- $[S]$ tarkibiga (ya'ni ega tarkibiga) va - $[WP_m]$ tarkibiga (yoki kesim tarkibiga) ajratiladi:

a) $[S]$ tarkibi — uch-to'rtta katta-kichik bolalar; bunda markaz — "bolalar", "uch-to'rtta" va "katta-kichik" aniqlovchilari esa bu markazning qurshovi, kengaytiruvchilaridir;

b) $[WP_m]$ tarkibi — ko'chada baroq it bilan o'ynashardi

Tekshirish natijasi ko'rsatdiki, $[P_m]$ vazafasidagi "ekan" to'liqsiz fe'lining qo'llanishi ham "edi", to'liqsiz fe'ddagidek juda xilma — xildir, Ayniqsa, quyidagi hollar ko'proq uchraydi;

1. $\{(S, -W_i) (S_2, S_3 - W_2)\}P_m$

2. $\{(S_i - (W_i, W_2,)) [S_2 - (W_3, W_4)]\}P_m$

3. {(Si-W,) , (S2-W2, W3)}Pm
4. {(S,-W,) , (S2-W2)}Pm
5. {(S,-Wi) , (S2-W2)}Pm
6. {(Si-Wi) , (S2-W2)]Pm, [(S3-W3 ,W4,) , (S4-W5)]Pm

Traktor ep haydar, traktor chigit ekar ekan, traktor chopiq qilar, paxta terar. traktor g'o'zapoya yular ekan. (AQahhor) Bu qurilma murakkab bo'lib, ikkita uyushgan gapi o'z ichiga olgan va bunday juftliklarning cheki bo'lmasligi ham mumkin.

Yuqorida keltirilgai oltinchi banddagi qolip (model) da ma'lum bir payttacha, ma'lum bir etapgacha bo'lgan voqealarni ta'kidlaydi. Shu voqealardan keyingi, bir-biriga yaqin bo'lgan voqealar esa umumlashtiriladi, birlashtiriladi , uyushtiriladi. Keltirilgan boshqa modellarda ham yozuvchi yoki so'zlovchining qandaydir niyatlari, voqelik aks ettiriladi, albatta. "Ekan" bobida bunday misollar tahlilini uzoq davom ettirsa bo'ladi.

Biz yuqorida [Rt]= edi bilan bir butunlik hosil qilgan [W] ning turli xil grammatik shakllarini ko'rsatgan edik. [Pm] — ekan bilan bir butunlik hosil qilgan [W] ning ham grammatik ko'rsatkichlari ko'p. Shuni aytish kerakki, tarkibida [Pm] edi bo'lgan [W] ning grammatik ko'rsatkichlari bilan tarkibida [Pm] — ekan bo'lgan [W] ning grammatik ko'rsatkichlari, asosan, bir xil.

Tarkibida ekan [Pm] mavjud bo'lgan [W] ifodalanish materiallarining xarakterli ko'rinishlari quyidagicha:

- | | |
|-----------------------------|------------------------|
| a) ... [W,] = ot, | ...[W2] =ot; |
| b) ... [Wi] = sifat, | ...[W2] = sifat; |
| v) ... [Wi] = sifat, | ...[W2] = bor, yo'q; |
| g) ... [W]] = sifatdosh, | ...[W2] = olmosh; |
| d) ... [Wi] = sifatdosh, | ..[W2] = sifatdosh; |
| e) ... [Wj] = sifatdosh, | ..{W2] = bor, yo'q; |
| yo) ... [Wi] = fe'l, | ..[W2] = fe'l; |
| j) ... [Wil = shart mayli, | ..[W2] = shart mayli; |
| z) ... [WJ] = buyruq mayli, | .. [W2] = shart mayli; |
| i) ... [Wi] = sifatdosh, | • [W2] = — moqchi; |
| y) ... [W)] = son, | ..[W2] = son |

(Sayyora ham birinchi, o'sha ham birinchi ekan.) ("Mushtum").

[Pm] **ekan** to'liqsiz fe'li shaklida bo'lganda yana bir qancha qiziqarli hollarni uchratish mumkin. Yuqorida aytganimizdek, kesim tarkibida keluvchi ko'rsatkichlarning ko'rinishlari juda ko'p va xilma —xil:

- a) [... Wv+Pm= — gan, ... W2+Pni = — gan ekan;

[... $W_i + P_m = \text{— (gan)}, \dots W_2 + P_m = \text{— (a)p}$] ekan va boshqalar;

b) {... $W_j + P_m = \text{— gan}, \dots W_2 + P_m = \text{— mas}$ } zkan

Matkarim bo'qoq haqiqatdan bolaligida otasi bilan hajga borgan, lekin otasi kambag'al bo'lgani uchun, ikkovini ham xech kim hoji demas ekan. (A Qahhor);

v) [... $W_i = \text{ot}, \dots W_2 = \text{ot}$] bo'lgan ekan (Bular Mirzacho'lga ko'chib kelishganda ham Qalandarov Voroshilov kolxozida brigadir, Xurinisho ipakchilik evenosining boshlig'i bo'lgan ekan.) (A Qahhor)
Bu misolda har ikkala qism kesimlari ot bilan ifodalangan bo'lib, ikkinchi qism kesimi murakkab shaklda.

2.2. O'zbek tilida uyushgan to'ldiruvchi ergash gaplar

Qo'shma gapning, qo'shma gap qismlarining, ichki va tashqi qo'shma gaplar, umumlashtiruvchi qismlar, qo'shma gapning uyushiq qismlarini umumlashtirib keluvchi bo'laklar haligacha etarli darajada o'rganilmagan. Bular maxsus tekshirishni talab qiladi.

Uyushgan gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro umumiyligi (va shu asosda umumlashtiruvchi bo'lagi) turli xil bo'ladi:

1) hamma qismlari xususan alohida — alohida bo'lib, faqat $[P_m]$ qismi umumiy bo'lgan uyushgan gaplar;

2) hamma qismlari xususiy bo'lib, faqat kesimning lug'aviy qismi va kesimlikni shakllantiruvchi vositalari (ya'ni $W P_m$) umumiy bo'lgan gaplar. Bunday gaplarning o'zi o'z navbatida bir necha turli ko'rinishlarda bo'ladi. Chunonchi:

a) «ega — hol — to'ldiruvchi» lari bilan farqlanuvchi gaplar:

Rahim bog'dan gul, Salim do'kondan gul oldi;

b) «ega — hol» lari bilan farqlanuvchi uyushgan gaplar:

Rahim bugun, Salim ertaga qaytadi kabilar shular jumlasidandir;

3) $[W P_m]$ va uning kengaytiruvchi bo'laklari umumiy bo'lib, faqat ega va $[W P_m]$ kengaytiruvchisining kengaytiruvchisi bilan farqlanuvchi uyushgan gaplar:

Rahim oq gul oldi, Salim qizil.

Uyushgan gaplarning bunday xususiyatga tayangan holda ishning bu bo'limida $[P_m]$ va $[W P_m]$ uyushtiruvchi vosita bo'lib kelgan uyushgan gap turlarini ko'rib o'gamiz. Shu bobning ikkinchi bo'limida esa $[W P_m]$ ning kengaytiruvchilari va bu kengaytiruvchilarning kengaytiruvchilari bilan farqlanuvchi gaplar uyushishiga diqqatimizni qaratamiz.

2.1. $[P_m]$ — uyushtiruvchi vosita

Ishning oldingi bandlarida uyushuvchi va uyushtiruvchi elementlar, ularning turli xil ko'rinishlari, ya'ni gap va gap bo'laklari bo'lib kelishi haqida ma'lumot berdik. Endi gap kesimi tarkibidagi biror elementning uyushtiruvchi vazifasida kelishi haqida to'xtalamiz.

Nutqimizda shunday gaplar borki, ular kesimlar tarkibiy qismining ma'lum bir birligi takror kelmay, faqat oxirgi kesim bilan birga qo'llaniladi. Oxirgi kesim bilan qo'llangan bu birliklar odingi kesimlarga ham tegishli bo'lib, ularni birlashtirish, uyushtirish vazifasini o'taydi. Bu uyushtiruvchi birliklar oldingi uyushtiruvchi birliklarga o'xshamaydi. Oldingi uyushtiruvchi birliklar (gap va gap bo'laklari) o'z mazmun (semantik) tuzilishi (strukturasi)ga ega. Ular o'zlarining mazmun tuzilishi (semantik strukturasi)ga mos ravishda gapning ma'lum bir bo'laklarini yoki qismlarini uyushtirib keladi va ular bilan o'zaro sintaktik munosabatga kirishadi» Keyingi, uchinchi, uyushtiruvchi birliklar esa bunday xususiyatta ega emas. Bu xil uyushtiruvchi birliklar kesim tarkibida kelib, bir butun mazmun tuzilishiga ega bo'ladi. Shu butunligicha gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kiradi. Kesim tarkibidagi bu uyushtiruvchi birliklar o'z-o'zidan qo'llanilmaydi, albatga. Ular gap kesishni shakllantiradi, kesimga shaxs-son, zamon, modallik kabilarni ifodalash imkoniyatini beradi.

Bizning asosiy tekshirish ob'ektimiz [Pm] dir. [Pm] nutqda juda ko'p qo'llanib, tizimli xil joylashish (pozitsiyalar)da keladi. U gapning oxirida kelib, hamma kesimlarni (gaplarni) birlashtiradi. Gap keng hajmli bo'lsa, shu bilan birga, gapda ifoda etilgan fikrlar ma'lum darajada bir-biridan mazmunan yiroq bo'lsa, o'rtada kelib, o'zidan oldingi kesimlarga tegishli bo'ladi. Kesim tarkibida qo'llanuvchi mana shu [Pm] juda xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'ladi va bulardan asosiylarini quyida ko'rib chiqamiz.

Hamma qismlari xususiy (alohida-alohida) bo'lib, faqat [Pm] qismi umumiy bo'lgan uyushgan gaplar. [Pm] qismining ifodolanishiga ko'ra uyushgan gaplarning ko'rinishlari juda ko'p va xilma-xiddir.

Ulardan eng ko'l qo'llanadigan ko'rinishlarga to'xtab o'tamiz.

1. [Pm] — to'liqsiz fe'llar.

To'liqsiz fe'llar haqida ancha ishlar bor. Shular ichida eng mukammali A.Hojievning "To'liqsiz fe'l" kitobidir. Bu kitob katta hajmli bo'lib (16,5 bosma kog'oz) , unda to'liqsiz fe'lning "edi", "ekan", "emish" formalari shu qadar keng o'rganilganki, bunga nimanidir qo'shimcha qilish ortiqcha tuyuladi. Biz bu erda "To'liqsiz fe'llar" sarlavhasi ostida A.Hojievning bu boradagi ba'zi bir fikrlariga boshqacha planda yondashmoqchimiz. Bizning diqqatimiz, asosan, bir hodisaga — to'liqsiz fe'l shakllarining uyushgan gaplarni shakllantirishdagi xususiyatlarini tasvirlash va umumlashtirishga qaratiladi.

I. - **edi** to'liqsiz fe'li. Bu to'liqsiz fe'l boshqa to'liqsiz fe'llarga nisbatan, juda unumli bo'lib, u so'z turkumlarining deyarli barchasi bilan, so'z birikmalari bilan birga keladi va ularni kesim shakliga kiritadi. To'liqsiz fe'llar, shuningdek uning bir ko'rinishi bo'lgan "edi" to'liqsiz fe'li, shaxs-son, zamonni ko'rsatadi. Shunday bo'lsa ham "... To'liqsiz fe'lga nisbatan tuslanish haqida gapirish mumkin emasdir. Chunki, shaxs-son qo'shimchalari harakat bajaruvchisini ko'rsatadi. To'liqsiz

fe'dda esa bajariladigan narsa (harakat) yo'q. Shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shilsada, u kesim vazifasidagi fe'lga oid bo'ladi"

-edi to'liqsiz fe'li, ko'pincha, fel va keng ma'noda ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ularni kesim shakliga kiritadi va asosan, harakat-holatning, biror voqeaning o'tgan zamonda yuz berganligini ko'rsatadi. Masalan, ot kesim hozirgi zamonni ifodalaydi, "edi" to'liqsiz fe'l bilan birga kelganda esa o'lgan zamonni ko'rsatadi: Bu bino — maktab. Bu bino maktab

edi. Fe'l kesim bilan birga kelganda uzoq o'tgan zamonni anglatadi:

U kelgan edi kabi.

"Edi" to'liqsiz fe'li, yuqoridaga kabi birgina kesim tarkibida kelish bilan birga, bir paytning o'zida, ya'ni bir gap ichida birdan ortiq kesimlar bilan qam kela oladi. Ba'zan esa uslub talabiga ko'ra "edi" to'liqsiz fe'li kesimlarning oxirgisi bilan birga kelib, hammasi uchun baravar bo'ladi. Bu fikrni A.Hojiev ham qayd etadi. Masalan, "To'liqsiz fe'l" kitobining 109-betida bu haqda kuyidagicha fikr bayon etilgan;"... edi" to'liqsiz fe'li uyushiq kesimlarda ularning eng oxirgisiga qo'shilishi mumkin". Bu fikr to'g'ri. Lekin bizning tekshirishimiz sal o'zgacharoq bo'lib, "uyushiq kesim" tushunchasidan uzoqlashadi, chunki uyushiq kesimli sodda gaplarning talqini shakl-vazifa tahlilida boshqacharoqdir. Shunday qilib, "edi" to'liqsiz fe'li bir gap ichidagi ko'p kesimlarning har biri bilan birga «qo'llanadi yoki ularning eng oxirgisi bilan keladi va hammasi uchun umumiy bo'lib, birlashtirish, uyushtirish vazifasini o'taydi».

Demak, "edi" to'liqsiz fe'li bir xil, shu bilan birga, turli xil grammatik shakldagi kesimlarni uyushtirib keladi.

Bizni esa $\{(Si—Wi), (S2 —W2)\}$ Pml qolipli uyushgan gaplar tarkibida "edi" to'liqsiz fe'l shaklining uyushgan gaplarni uyushtirishdagi vazifasini tahlil etish qiziqtiradi. Uyushgan gaplar kesimining lug'aviy asosi $[Wj]$ va $[W2]$ bir yoki turli so'z turkumlarida, bir xil yoki turli xil grammatik shakllarda bo'lishi mumkin. Tekshirishlarimiz uyushgan gaplar kesimining lug'aviy asosi $[W]$ quyidagi ko'rinishlarda ko'proq uchrashini ko'rsatadi:

a) ... $[Wi] = ot, ... [W2] = sifatdosh + [Pm]$

b) ... $[W,] = sifat, ... [W2] = sifatdosh + [Rsh];$

v) ... $[Wj] = \langle bor \rangle, \langle yo'q \rangle$ so'zlari;

g) ... $[Wj] = —moqda,$

$[W2] = harakt nomi — (i) + [Pm]$

d) ... $[Wi] = sifatdosh, ... [W2] = infinitiv + [Pm];$

e) ... $[Wj] = son, ... [W2] = ot + [Pm]$

e) ... $[Wi] = ot, ... [W2] = ko'makchi + [Pm]$

j) ... $[Wj + Pm] = buyruq mayli$

... $[W2] = istak mayli (-sin, — gin) + [Pm]$

z) ... [Wi + Pm] = shart mayli

...[W2] = sifatdosh, (—sa, — (a)r) + [Pm]

i) ... [Wi + Pm] = shart mayli

...[W2 =shart mayli+ [Pm]

"Edi" to'liqsiz feli kesimlarni o'zgartirib kelganda kesim tarkibi bir xil va turli xil bo'lishi mumkin.

I. [WPm] ning tarkibida -gan formasining qo'llanilishi va "edi"ga nisbatan qanday joylashish (pozistiya)da turishi, yolgiz o'zi yoki boshqa formalar bilan qay tarzda ishlatilishini ko'rib chiqamiz:

a) ...-gan, ...-gan edi; Kun qaytgan va bahor kunlarining uchdan ikki ulushi o'tgan edi. (S.Ahmad);

b) ...-gan, ...-yo'q edi: Qadimgi zamonda ayollar o'ziga—o'zi ayol, ya'ni mungli, mushtipar deb qarash tabiiy bo'lgan, chunki uning ko'z yoshidan boshqa opqa tayanchi yo'q edi. (A.Qahhor);

v) ...-gan, ..." sifat -edi: Erta yog'ib o'tgan yomg'ir chang va g'uborni yuvib ketgan daraxtlarning, yaproqlari tiniq va toza edi. (S.N); ba'zan sifatdosh bilan ifodalangan kesim eng keyingi qismga qo'shilib keladi; Ularning chaqchaygan ko'zlari nursiz, so'ljaygan yuzlari jonsiz, ko'plarining lablari oqargan (A.Tursun);

g) birinchi qism kesimi -gan. keyingi qismlar kesimi boshqa bir xil shaklli birliklar bilan shakllangan: Paxta dalalarida endi salqin kuchaygan, tungi ellar esar, mevasi og'irligidan qad bukkani daraxtlarni vazmin silkitar, sap-sariq jo'xoripoyalarni shildiratar edi (Oybek) Misoldan ko'rinib turibdiki, -gan bevosita fe'lining leksik qismiga qo'shilib kelyapti;

d) birinchi qism kesimi -gan, keyingi qismlar kesimi esa boshqa har xil shakldagi birliklar bilan shakllangan: Rostdan ham tanqidga Qalandarovning eti o'lgan, bundan bir muncha vaqt burun uni birov shunchaliq tanqid hilsa, u haqiqatan tizzasini ko'kragiga ko'yib, tilini sug'urib olishga jon-jahdi bilan urinar (A.Kahhor).

Ba'zan "edi"ga vazifasi jihatdan teng bo'ladigan —di qo'shimchasi qo'llanadi va u, ko'pincha, keyingi qism kesimiga qo'shilib keladi: Hamma bir-biridan yaxshi kiyingan lekin hech kimning kiyimi birovnikiga o'xshamasdi. (P.Tursun) Polga ham gilam singari o't tashlangan stolda ham, deraza tokchasida ham o'tlar yotardi. (S.Boboev)

2. [WPm] tarkibida -mas formasi ham turli o'rinlarda keladi. Ba'zan bu forma hamma qism kesimlariga, ba'zan birinchi qism kesimi va ayrim hollarda oxirgi kesimi tarkibida qo'llanadi. Masalan:

a) {[Wj] + -mas, W2] +-mas edi: Siddiqjon o'ziga bundoq savol bermas va bundoq savol xayoliga ham kelmasdi. (A.Qahhor);

b) {[Wj] + -ar, W2] +-mas edi: Xolmurod bilan ko'p gaplashgisi kelar edi. (P.Tursun)

3. [WPm] tarkibida ravishdosh qo'shimchalaridan ~(a)r ko'p qo'llanadi va u xuddi -mas formasidek turli o'rinlarda keladi.

Qismlarning eng oxirgi kesimini -(a) r edi formasi shakllantiradi.

A {...[Wi] + -ar, ...[W2] + -ar} edi. Qismlar orasida teng bog'lovchilar qo'llangan: Anikin qiz bilan rus tilida gaplashar ham Komila uning fikrlarina juda tez anglar va amalga oshirishga tirishar edi. (Oybek) Qismlar orasida ba'zan-ba'zan, goh-goh, dam-dam kabi birliklar qo'llangan: Goh supa chetiga ekilgan rayhon hidi dimoqqa urilar, goh tom orqasidagi yo'ng'ichqazorda hashoratlarning bir qiyomda chirillashi e'tiborni tortar edi.

Birinchi misolning uchala qismi, ikkinchi qo'shma gapning ikki qismi ham -(a)r formasi bilan shakllangan.

B. {...[Wi] + -(a)r sifatdoshi, .. [Shg] + boshqa elementlar} +Pm] Masalan: Xolmurod uning yonida o'tirar va beixtiyor uning ko'zlariga qarab qo'yar, nazarida Fotima tobora uzoqlashib, begona bir kishiga aylanib borayotgandek edi. (P.Tursun)

{...[Wj] + -(a)r, ...[W2] + - moqda) }edi; Chorpoyaning berigi yonida qarigan Abdurahimboy, uning yonida Abduhakim va Mullasobit nomli ikkita katta o'g'li o'tirar va bularning ro'parasida tumanning boylaridan bir necha kishi o'tirmoqda edi (S.A.).

Ayrim paytlarda bir qismning kesimi -(a) r birligi, ikkinchi qismning kesimi ot bilan shakllangan bo'lib, keyingi qismda **edi** qo'llangan. Masalan, Kozetani hushidan ketguncha urar-buning' aybdori —xotin. u hish kunlari oyoh yalang yurar-buning aybdori er edi. (V.Gyugo)

1. ...-(a)r, ...-mas edi: Nuri esa Gulorning gaplariga quloq solgani kabi ko'rinar, lekin fikri boshsta narsalar bilan band bo'lgani uchun, so'zlari, savol-javoblari sira bir-biriga qovushmas edi. (Oybek) "Edi" to'liqsiz fe'li ko'p sifatdosh kesimli gaplarda ham takror, ham gap oxirida qo'llaniladi. Bu hol ancha unumli.

Ravishdoshlarning bunday qo'llanishi esa ancha unumsizdir. Masalan, "u kelib edi, Sanam ularnikiga borib edi", "U kelib, Sanam borib edi" kabi misollar juda kam uchraydi.

2. "Ekan" to'liqsiz fe'li. Bu to'liqsiz fe'l kesimlar bilan birga kelib, ko'pincha, voqeaning yuz berish-bermasligini shaxsan ko'rish, ba'zan birovdan eshitish orqali bayon qilishni bildiradi. Ma'lumki, agar "ekan" to'liqsiz fe'li ot kesimlar bilan qo'llansa, tasdiq-inkorni, ya'ni bir narsani tasdiqlash,shu bilan birga boshqa bir narsani inkor etishni anglatadi: Bu kitob ekan. Bu bino maktab ekan. Bu yaxshi ekan kabi. "Ekan" kesim tarkibida kelib, shu yuqoridagi ma'nolarni saqlagan holda [Pm] vazifasini o'tayveradi. "Ekan" [Pm] vazifasida kelganda ikki xil qo'llanadi a) [W] bilan takrorlanadi. Bunday hollarda [Pm] umumlashtirishni emas, ta'kid ma'nosini kasb etadi: U borgan. O'zi keksalarni to'plagan, suhbatlashgan ekan.(«Guliston") Bu gapning modeli [{(Si—Wj, (S2 — WjUPm, WPm)];

b) [Pm] oxirgi [W] bilan kelib, xuddi "edi"dek umumlashtirish, uyushtirish funkstiyasini bajaradi: Petka Penzalik kolxozchi, askarlikka urush boshlanganda chaqirilgan, u frontga Ahmadjondan uch

oy chamasi burunroq kelgan va bir necha jangda qatnashgan zkan. (A.Kahhor) Bu gapda to'rtta [W] va bitta [Pm] mavjud.

Modeli: {(Si-Wi ,W2,) (S2-W3, W4)}Pm;

XULOSA

Yuqoridagi tahlildan biz xulosa qilib quyidagilarni ayta olamiz:

1. Uyushiq gap faqat murakkab qo'shma gaplar tarkibidagina bo'ladi.
2. Uyushiq gaplar mohiyatan qo'shma gapning tarkibiy qismlaridan birining yoki har ikkalasining uyushib (mazmun va vazifa jihatidan bir xil bo'lib) kelishidir. Boshqacha qilib aytganda, uyushiq gaplar deganda bir bosh gapga bo'ysundirilgan ikki va undan ortiq bir tipdagi ergash gaplar, bir yoki bir necha bir xil tipdagi ergash gaplar bo'ysungan ikki va undan ortiq bir gapdagi bosh gaplar tushuniladi.
3. Uyushiq gaplar qurilishiga ko'ra sodda va qo'shma gap bo'lishi mumkin.

Endi uyushiq qismli qo'shma gaplarni uyushgan gaplar bilan qiyoslab chiqamiz.

Biz talqin etayotgan uyushgan gaplarni rus va o'zbek tilshunosligida ishlatilnb kelayotgan "uyushiq qism (komponent)li qo'shma gaplar"dan farqlash lozim. Yuqorida aytanimizdek, uyushiq gaplar deganda bir bosh gapga tobe bo'lib kelgan ikki va undan ortiq bir tipli ergash gaplar tupguniladi , Masalan, Hamma biladiki, otam quruvchi, onam zavodda ishlaydi gapi uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi bosh gap. Mana shy bosh gapga (hamma biladi) ikkita to'ldiruvchi ergash gap — Onam kuruvchi. onam zavodda ishlaydi — birikib keladi.Shuning uchun an'anaviy sintaksisda gaplar qurilishiga ko'ra "sodda gaplar" va "qo'shma gaplar" kabi

ikki bosh turga ajratilsa, shakl vazifa jihatdan yondashilganda ular uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) sodda gaplar — bitta shakllangan kesimga [WPm] ga bo'lgan gaplar;
- 2) uyushgan gaplar (ikki va undan ortiq egaga, har bir egaga aloqador bo'laklarga (so'zlarga) ega bo'lib, bitta kesimning ko'rsatkichlari bilan shakllangan gaplar);
- 3) qo'shma gaplar — ikki va undan ortiq shakllangan kesimga ega bo'lgan gaplar.

Sodda va qo'shma gaplar qurilishini belgilashda asosiy omil gapda nechta shakllangan kesimning bo'lishidir. Egalarning miqdori, bor-yo'qligi, bir xil yoki har xilligining ahamiyati yo'q. Uyushgan gaplarni ajratishda esa bosh omil ikkitadir:

- 1) bitta shakllangan kesimning mavjudligi;
- 2) ikki va undan ortiq uyushmagan eganing mavjudligi.

Uyushiq bo'laklar orasiga biriktiruvchi bog'lovchilarni qo'ya olganimizdek, uyushqlik zanjirini davom ettira olganimizdek,yuqoridagi hosilalar qismlari orasida bog'lovchilarni qo'llashimiz va bu qatorni davom etgirishimiz ham mumkin. Shu bilan birga uyushiq bo'lakli

sodda gaplarning yana bir xususiyati shundaki uyushiq bo'laklarni umumlashtiruvchi boshqa bir so'z- bo'lak bo'ladi. Bog'da etilgan olma, anor, uzumlar — hammasidan oldi gapida to'ldiruvchi uyushib kelmoqda. Uyushiq to'ldiruvchilarni bir so'z — hammasidan to'ldiruvchisi uyushtirib, bu zanjirning oxirida qo'llanib kelmoqda. Masalan, Men hayron qoldim: do'kondorlarning ba'zilar kitob o'qib, ba'zilar tasbeh o'girib, boshqa birlari esnab o'tirishardi (Yo.Shukurov). An'anaviy grammatikada bu tipdagi gaplar qo'shma gaplar qatoriga kiritilib, birinchi qism bosh gap, keyingilari to'ldiruvchi ergash gaplar deb qaraladi (qisman sabab mazmuni bor). Formal-funkstional tadqiqot "Tezislari" mualliflarining fikricha, qo'shma gapning minimal modeli qurilishiga ega. Bu turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining ichki agglyutinatív tuzilishi (strukturasi)dan kelib chiqadigan holdir.

Do'kondorlarning ba'zilar kitob o'qib, ba'zilar tasbeh o'girib, boshqa birlari esnab o'tirishardi' gapi uchta qismdan tashkil topgan, bularning har biri o'z navbatida [S] va [W] larga hamda hammasi uchun umumiy bo'lgan [Pm] birligiga ega. Bu umumiy birlik hamma uyushiq bo'lakli gaplarda qo'llanadigan umumlashtiruvchi so'z vazifasini bajarib kelmoqda. Buni biz gapning shaklini o'zgartirganimizda yaqqol sezamiz; Do'kondorlarning ba'zilar kitob o'qib, ba'zilar tasbeh o'girib, boshqa birlari ~esnab o'tirishlarini ko'rib hayron qoldim. Bir predikativ markazga ega bo'lgan bu birlik sodda gapdir. "Men hayron qoldim" birligining umumlashtirish, jamlab ko'rsatish xususiyatlarini hisobga olib, shartli ravishda umumlashtiruvchi gap deb atadik. Buning uyushiq bo'lakli sodda gaplarga va qo'shma gaplarga, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ham o'xshash, ham farqli tomonlari bor. Shunday ekan, tuzilishli hosilalarni nima deb atash va qaysi kategoriya ichida o'rganish mumkin? Yana shunisi qiziqki, kesimlikni shakllantiruvchi birlikning o'zi har xil, turli shaklda bo'ladi.

Ba'zi bir uyushgan gaplar tarkibida bir gap bo'lagi bor-u, ikkinchisida yo'q yoki aksi. Yana birlarida bir bo'lakning har xil ko'rinishlari uchrashi mumkin. Ayrimlarida esa gap bo'laklari aralash holda keladi, shu kabi qo'llanishni tekshirish uyushgan gaplar qismlari tarkibining rang-barangligini ko'rsatadi.

Quyida bunday qo'llanishni ko'rib o'tamiz:

1) uyushgan gap birinchi qismida to'ldiruvchi qo'llanadi, ikkinchisida esa qo'llanmaydi:

Erta yog'ib o'tgan yomg'ir chang va g'uborni yuvib ketgan.

Daraxtlarning yaproqlari tiniq va toza edi.

... chang va g'ubor ... yuvib ketgan

... yaproqlari ... X ... tiniq va toza edi

[WPm] lar tarkibi

2) birinchi qismida to'ldiruvchi yo'q, ikkinchisida — mavjud:

Uyg'onganda suyaklari sirqirar, u o'zini lanj tuygandi.

... suyaklari ... sirqirar

... o'zini X ... lanj tuygandi

[WPm] lar tarkibi

3) har ikkala qismda ham to'ldiruvchilar mavjud:

a) vositasiz to'ldiruvchilar qo'llanadi:

Ahmoq horiganini bilmas, ko'sa— qariganini (Maqol)

Ahmoq qizini maqtar, tentak — o'zini. (Maqol)

4) vositali to'ldiruvchilar qo'llanadi:

Nigora qalpoqqa , ukasi velosipedga qaradi gapida qaradi so'zi qavsdan tashqariga chiqariladi va u qismlar tarkibidagi o'rtog'iga. velosipedga bo'laklarini ham uyushtirishga xizmat qiladi;

Berdig'ulov ochiq chehra bilan gapirar. uning xursandligi so'zidan ham, xarakatidan ham sezilib turar edi (S.Nazar).gapining har ikki qismida to'ldiruvchi qo'llangan, bulardan ikkinchi qismdagisi uyushgan holda kelgan. Va har bir to'ldiruvchi o'z hokim bo'lagiga tobedir.

Masalan, to'ldiruvchi-to'ldiruvchi qo'llanishini ko'rib chiqsak:

a) ifodalanish materiali bir xil: Yaxshidan ot qoladi, yomondan — dog'. (Maqol) Birniki mingga uradi, mingniki tumanga. (Maqol);

6) ifodalanish materiali har xil: To'tiqizning onasi eri hasratida ertadan kechgacha o'tirib, do'ppi, qiyig' , palak, so'zana,sardevorlar tikar, bularni chiqarib sotar, kichkina To'tisini o'zi boqar edi. (M.Ismoilov) Akaskin qiz bilan rus tilida gaplashar ham Komila uning fikrlarini juda tez anglar va amalg'a oshirishga tirishar edi. (Oybek)

Keltirilgan misollar qismlarida to'ldiruvchining vositali-vositasiz ko'rinishlari bir xil shaklda (vositali-vositali yoki vositasiz-vositasiz) va har xil shaklda (vositali-vositasiz) qo'llanishi ko'rsatilgan. Qiyoslanganda misollar tarkibida to'ldiruvchining bu turlari ko'proq aralash hodda kelishi aniqlandi: Goh supa chetig'a ekilgan rayhon hidi dimog'iga urilar,goh tom orqasidagi yo'ng'ichqazorda hasharotlarning bir xilda chirillashi e'tiborni tortar edi. (P.Qodirov) Daryo tomondan g'uvillab esib turgan shabada yo'l bo'yidagi o't-o'lanlarni tebratar hamda sarg'ayib borayotgan arpalar undan mavj urar edi. (AKahhor);

Uyushgan gaplar tarkibiy qismlarning yoyiq holda qo'llanishi juda ko'p uchraydi. Ayniqsa,tarkibida har xil bo'laklarning kelishi ham uyushgan gaplarga xos, bulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

1)to'ldiruvchi-aniqllovchi: Yaxshining xammaga sharofati tegar, yomonning kasofati. ("Mushtum") Gap hammaga ta'sir qilgan, qizlarning qiy-chuvi tingan edi (gazetadan).

2) to'ldiruvchi-hol: ... xavotir yuragidagi qo'rquvdan g'olib kelar. u borgan sari tezroq, jadalroq yurardi. (S.Zunnunova) Bu odam hamma vaqt xursand yurar, yuzidan tabassum arimasdi. Soy g'uvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg'oqda o'sgan o'tlarni silkitar edi. (Oybek)

Uyushgan gaplarning bir qismida vositasiz, ikkinchisida vositali to'ldiruvchilar qo'llanadi, chunonchi, Daryo tomondan g'uvillab esib turgan shabada yo'l bo'yidagi o't —o'lanlarni tebratar hamda sarg'ayib borayotgan arpalar mavj urar edi. (A.Kahhor) gapida ,o't-o'lanlarni va undan to'ldiruvchilari qo'llangan hamda ularning har biri o'z kesimiga tegishli (tebratar, mavj urar)dir. Goh supa chetiga ekilgan rayhon hidi dimog'iga urilar, goh tom orqasidagi yo'ng'ichqazorda hasharotlarning bir xilda chirillashi e'tiborni tortar edi.(P.Qodirov)

Qurilma tarkibida har xil umumiy bo'lak - umumiy to'ldiruvchilarning o'ziga xos xususiy bo'laklari ham bo'lishi mumkin.

Masalan, Nigora sariq, Nargiza oq gullardan oldi gapida gullardan to'ldiruvchisi "sariq va o q aniqlovchisiga umumiy bo'lak hisoblanadi. Bu qurilmada oldi uyushtiruvchilik vazifasini bajarib kelmoqda:

Raqim xatni, Salim dasturni olish uchun keldi tipidagi gaplarda ham shunday holni ko'ramiz. Bunda [WPm] "keldi"ga teng va u qavsdan tashqariga chiqariladi. Lekin qismlardagi vositasiz to'ldiruvchilar "keldi"ga bevosita ergashadilar, yani ular uchun olish uchun elementi zarur birliklardandir: nima uchun keldi? — olish uchun. Olish uchun elementi qo'llanmasligi mumkin emas, gap mazmuniga putur etadi, u har bir to'ldiruvchidan keyin qo'llanishi mumkin, lekin kelish elementi olish uchunsiz ahamiyatsiz bo'ladi: Rahim xatni keldi, Salim dasturni keldi kabi. Bu gapda umumiy maqsad holi ikkita to'ldiruvchini tobelantirib kelmoqda.

Ishning bu bandida keltirilgan misollar, ularning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ona tilimizda uyushgan gaplar juda ko'p qo'llanar ekan. Ma'lumki, sintaksisda "umumiy" va "umumlashtiruvchi bo'laklar" degan atama bor. Umumiy bo'lak deganda ko'p aniqlanmish uchun umumiy bo'lgan aniqlovchi, ko'p kesim uchun umumiy bo'lgan to'ldiruvchi va hol, ko'p ega uchun umumiy bo'lgan kesim, ko'p kesim uchun umumiy bo'lgan ega kabilar tushunilsa, umumlashtiruvchi bo'lak deganda uyushiq bo'laklarni jamlab ko'rsatuvchi, jins tushunchasini ifodalovchi bo'laklar tushuniladi. Sintaksisda bulardan boshqa "umumiy gap", "umumiy predikativ birlik" kabi tushunchalar ham bor. Bunday Nigora-Nargiza sariq oq — gullardan oldi qurilmalar uch xil: a) umumiy bosh gap; b) umumiy ergash gap; v)umumiy bosh, umumiy ergash gaplar.

Birinchisida ergash gaplar uyushib kelib, o'zlari uchun umumiy bo'lgan bosh gap bilan uzviy aloqada bo'lib, uni (bosh gapni) yoki bosh gapning biror bo'lagini izohlaydi.Ikkinchisiga bosh gaplar ko'p bo'ladi. Bosh gaplar o'zlari uchun umumiy bo'lgan ergash gap tomonidan izohlanadi. Ergash gap bosh gaplarni butunicha yoki ularning biror bo'lagini izohlaydi.Uchinchisiga esa bosh gap ham, ergash gap ham ko'p bo'lib, ergash gaplarning har biri bosh gaplarning har biri bilan sintaktik munosabatda bo'ladi: Xalqlar o'rtasidagi ziddiyat tugatilsa musaffo bo'ladi, osoyishta yashaydi.("Turkiston")

Bu chizmadan bosh va ergash gapAarning bir paytda uyushib kelganligi, har bir ergash gap, har bir bosh gaplarning bir-birlari uchun umumiy bo'lganliklari ko'rinib turibdi.

Yuqorida fikr yuritilgan qurilmalarda bir xil birliklar uyushiq birliklarni umumlashtirib, uyushtirib keladi. Ba'zan esa turli xil yoki bir sathdagi birliklar uyushiq birliklarni uyushtirib, umumlashtirib keladi. Bunday vaqtda bir element qurilma shaklida (gap shaklida) bo'lsa, uyushtiruvchi birlik uyushiq qurilmalar kesimning tarkibiy qismi bo'ladi. Bir misolni tekshirib ko'raylik:

Shuni yaxshi bilingki, xalqimizning didi nozik,talabi kattadir. (Gazetadan) qurilmasi uch qismli bo'lib, uning birinchi qismi keyingi ikki qismlar (uyushiqlik hosil qiluvchi qismlar)ni birlashtirib, uyushtirib keladi. Bu uyushtiruvchi qurilmani takror qo'llash mumkin.

Shuni yaxshi bilingki, xalqimizning didi nozik,

Shuni yaxshi bilingki, xalqimizning talabi katta.

Shuni yaxshi bilingki, xalqimizning didi nozik, talabi katta qurilmasida qurilma shaklidagi uyushtiruvchi elementni (Shuni yaxshi bilingki) qo'llamaslik ham mumkin: Xalqimizning didi nozik, talabi katta kabi. Ko'rinadiki,yuqoridagi tipli qurilmalarda kesimlik (predikativ) belgilarga ega bo'lgan turli sath (uroven)dagi ikki birlik uyushiqlikni hosil qiladi. Bu xil gaplarni uyushgan gaplar deyish to'g'ri bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan Xalqimizning didi nozik, talabi katta tipidagi hosilalarni uyushtiruvchi qurilmalar tabiiy, ijtimoiy xarakterga ko'ra ikki xil:

a) ob'ektiv voqelikni ifodalovchi uyushtiruvchi qurilmalar;

b)sub'ektiv-voqelikni ifodalovchi uyushtiruvchi qurilmalar.

Ob'ektiv voqelikni ifodalovchi qurilmalar voqealarning asl mohiyatini, aslida nimadan, nima sababli, nimalar natijasida yuz berganligini ko'rsatsa, sub'ektiv voqelikni ifodalovchi uyushtiruvchi birliklar kishilarning diqqatini yuz bergan voqelikka tortish, ta'kidlash, turli xil shart-sharoitlar va boshqa o'xshashlarni ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: 2011.
- 2.Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз.- Т.: Ўзбекистон,1996. - 62 б.

ILMIY ADABIYOTLAR

Абдурахмонов Х., Рафиев А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. Т.: Ўқитувчи, 1992.

3.Ахмонова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 2000

4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т., 1988.

5. Қурбонова М.ва бошқ. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. Т.2004

6. Махмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий граматикаси. Т.: Ўқитувчи 1995.

7. Миртожиев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Т.: Фан, 1992

8. Неъматов Х., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Т. 1999.

9. Эрматова Ж. Мазмуний синтактик муносабатлар ва уларнинг синкретизми// Урганч Давлат Университетининг илмий ишлари. Урганч 2004.

10. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. -Т.: Ўқитувчи, 1980. -448 б.

11. Шоабдурахмонов Ш. (и)н эгалик қўшимчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1993. - N2. -Б. 36-38.

12. Щедровский Г.Т. Смысл и значение // Проблемы семантики -М., 1974. -С. 76-112.

13. Язык и логическая теория. -М.: Наука, 1987. -208 с.

14. Якобсон Р.О. Избранные работы. -М.: Прогресс, 1985. -456 с.

15. Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков // Типология грамматических категорий. -М., 1975. -С. 117-126.

16. Ҳожиёв А. Феъл. -Т.: Фан, 1973. -192 б.

17. Ҳожиёв А. Отнинг чегара формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1977. -N4. -Б. 17-21.

18. Ҳожиёв А., Махмудов Н. Семантика ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. -1983. -N2. -Б. 27-29.

19. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. -Т.: Ўқитувчи, 1979. -80 б.

20. Ўзбек тили грамматикаси. I том. -Т.: Фан, 1975. -610б.

Интернет материаллари:

